



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

*Qurbonova Nafisa Ismoilovnaning
“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun
Hozirgi zamon ingliz tilida “keep”so`zining
sintaktik- semantik tahlili mavzusida yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : katta o`q. Safarova R.

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman-german filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots. D. Jo`rayev
“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi shahri, 2012 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha.....	7
I.1. So'zlar bog'lanmasi va uning turlari.....	12
I.2. Iboralar va uning ma'no tarkibi.....	14
I.2.1. Iboraning shakl va ma'no jihatiga ko'ra turlari.....	15
I.2.2. Iboraning so'z, gap va so'z birikmasiga munosabati.....	25
I.3. Frazeologizmlarning morfologik xususiyati.....	26
II BOB. "keep" fe'li yordamida yasalgan iboralarning grammatik xususiyatlari.....	
II.1. "keep" so'zining gap strukturasi qo'llanishi.....	29
II.2. "keep" fe'li yordamida yasalgan frazeologik birliklarning sintaktik -semantik tahlili	32
Xulosa.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	67
Ilmiy adabiyotlar.....	67
Badiiy adabiyotlar.....	68

Kirish.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yuqori malakali intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda davlat siyosatining o'rin va rolini xalqaro jamoatchilikning o'rganishi va tanishishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili" mavzusidagi Xalqaro konferentsiyasining ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganlaridek, "... oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"¹¹.

Barkamol avlod tarbiyasi, ularning intellektual salohiyatini yuklastirish vazifasining, so'zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo'lgan tilshunoslikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarida xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamonaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko'p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti keng o'rin egallamoqda. Til birliklarining bunday ko'pqamrovli o'rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o'ziga xos o'rmini belgilash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda so'zlar, so'z birikmalarini o'z ichiga oluvchi frazeologik birikmalarini ona tilidagi frazeologik birliklar bilan taqqoslaganda ikki tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. O'rgatilayotgan tildagi mavjud frazeologik birikmalarning ona tiliga o'girish yoki shu tilda unga mos keluvchi muqobillarini topib, til o'rgatuvchilarga shu tillar orasidagi umumiylik hamda tafovutlarni anglatish muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgacha frazeologizmlarning semantik tabiati, semantik tasnifi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uslubiy xususiyatlari ko'pgina ilmiy gulanishlar manbai bo'lgan. Lekin frazeologizmlar tilshunoslikda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

¹ Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. –T., "Xalq so'zi", 18.02.2012.

Tilidagi frazeologizmlarning aksari fe'l so'z turkumiga xos. Hozirgi zamon ingliz tilida "keep" fe'li yordamida yasalgan frazeologik birliklarning salmog'i ancha katta. "keep" fe'li ishtirokida yasalgan frazeologik iboralarning ma'no va mazmun jihatini hamda grammatik tuzilishini har tomonlama o'rganish mavzuning dolzarbligidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Frazeologik birliklar juda qadimdan insoniyatning jozibali va obrazli nutq vositasi sifatida qo'llanib kelinayotgan bo'lsa ham, uni ilmiy o'rganish yaqindan boshlangan. Frazeologiya atamasi dastavval adabiyotshunoslikda paydo bo'lib, bir asarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolganda qo'llangan. 1558- yili ingliz adabiyotshunos olimi Neandr badiiy asarni tarjima qilgan ekan, shu termini qo'llashga majbur bo'lgan. Keyinchalik tilshunoslikda ham yuqoridagi ehtiyoj tufayli frazeologizm keng o'rganila boshlandi.

Bu borada g'arb tilshunoslari O.Yespersen, Ch.Friz, Ch.Xokket, X.Marchand, S.P.Logan taniqli rus olimlari N.N.Amosova, I.V.Arnold, O.S.Ahmanova, V.V.Vinogradov, B.A.Ilish, A.V.Kunin, V.P.Yartseva, R.S.Gunzburg, S.S.Xidikel, A.I.Smirnitskiy, o'zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, F.A.Abdullayev, Yu.D.Pinxasov, M.Irisqulov, S.Usmonov, E.A.Mamatov, B.Mengliyev ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Hozirgi zamon ingliz tilidagi "keep" fe'li yordamida yasalgan iboralarni nazariy va amaliy hamda ma'no mazmun jihatdan sintaktik – semantic tahlil qilish orqali o'rganib chiqish.

- Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, tahlil qilish va ularga munosabat bildirish;
- mavjud nuqtai-nazarlarga ijodiy yondashib, ularni guruhlariga bo'lish;
- "keep" yordamida yasalgan frazemalarni morfologik jihatdan tekshirish va ularni alohida tadqiq manbai sifatida ko'rib chiqish;
- gap qurilishida "keep" so'zining qaysi ma'nolarda ishlatilganligini aniqlash;
- zamonaviy ingliz va amerikalik yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan misollardan foydalanib "keep" fe'li yordamida yasalgan iboralarni grammatik xususiyatlarini o'rganish;
- frazeologik iboraning so'z, gap va so'z birikmalaridan farqli tomonlarini ko'rsatib berish;

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti.

Badiiy matnlardan to'plangan "keep" fe'li yordamida yasalgan frazeologik birliklar, shuningdek, A.V.Kuninning "English-Russian Phraseological Dictionary" lug'atidagi materiallardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati.

"keep" fe'lining yuzdan ortiq frazeologik birliklar tarkibida kelib, nutqda emotsional ekspressiv vosita sifatida qo'llanishini yoritib berish BMIning ilmiyligidir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy nazariy xulosalari ingliz tilining amaliy grammatika, leksikologiya, stilistika fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, ulardan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda va ilmiy maqolalar uozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan ilmiy, badiiy adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Uning umumiy hajmi 65 bet.

I BOB

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY TUCHUNCHA

Hozirgi zamon ingliz tilshunosligida frazeologiyaning o'рни, uning predmeti, tarixi, hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichlari to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Avvalo frazeologik birlik nima? Degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Tarkibiy tuzilishi va ma'no jihatdan ajralmas birikmalar frazeologik birliklar deyiladi. Frazeologik birliklar nutqda erkin holda hosil bo'lmaydi, ular tilga tayyor holda kirib keladi. Frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi leksik komponentlar turg'un bo'lib, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi. Frazeologik birliklarning komponentlarini o'rnini almashtirish yoki boshqa so'z qo'yib o'zgartirish mumkin emas.

Mashhur lingvist, frazeologiya sohasining bilimdoni professor A. V. Kunin frazeologiya leksikologiyaning bir qismi emas, balki mustaqil lingvistik fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi². Uning frazeologik birliklar klassifikatsiyasi ularni nutqda bajaradigan funksiyasiga asoslangan. Bular: nominativ, kommunikativ va undov funksiyalaridir.

Taniqli tilshunos V. V. Vinogradov frazeologik birliklarni ma'nosiga ko'ra uch guruhga bo'ladi: frazeologik qo'yilmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar³.

Professor N. Amosova frazeologik birliklarning ikki kategoriyasini havola etadi. Birinchi kategoriyaga kiruvchi frazeologik birliklarda yaxlit ma'no bitta komponentning ma'nosiga bog'liq bo'ladi.

Masalan: dutch courage- gollandcha mardlik, ya'ni ichkilik ichib mard bo'lib ketish; to bring to book- adolatli yechimga kelish; small years- bolalik yillari.

Ikkinchi kategoriyada frazeologik birliklarning barcha komponentlari o'zaro umumiy ma'no hosil qiladi. Bunday frazeologik birliklarni idiomalar deb ataladi. Masalan: to toe the line- ishni qoyillatmoq, a free lance- mustaqil ish yurituvchi shaxs.

Agar bir komponentning ma'nosi ikkinchisining qat'iy bog'liq bo'lsa, u bunday birliklarni frazemalar deb atadi.

² А.В.Кунин. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.

³ В.В.Виноградов. Фразеология современного английского языка. М., 1972.

Professor A.I. Smirnitskiyning ta'kidlashicha frazeologik birliklar o'ziga xos so'zlar guruhi bo'lib, ular yagona, semantik barqaror birliklardir. Ular gapda bitta funksiyada keladi va bir so'z turkumiga mansub bo'ladi. Uning fikrlarini aynan keltirib o'tmoqchimiz:

“ A phraseological unit may be defined as specific word groups functioning as a word equivalent. The phraseological units are single semantically inseparable units. They are used in one function in the sentence and belong to one part of speech⁴”.

Professor A. Kunin Smirnitskiyning bu fikrini ma'qullamaydi. U frazeologik birliklarning komponentlari alohida ma'noga ega bo'lib, gapda bitta funksiyada qo'llanila olmaydi deydi. Masalan: He gets rid of it.

Bu hodisa tilshunoslar tomonidan o'z yechimini kutayotgan masaladir.

Frazeologik birliklar semantik va grammatik jihatdan barqaror, bo'linmas ekanliklari tufayli ularni 3 guruhga ajratish mumkin: otli (heavy father), fe'lli (take place, break the news) va ravishli frazeologik birliklar (in the long run, high and low).

Frazeologik birliklar orasida buyruqmonand frazeologik birliklar ham mavjud:

God bless his soul!, Curse her!, Damn him!, Stay well!, Go well!, Heaven forbid!, Lord love us!, va hokazolar.

Bunday frazeologik birliklar asosan kishining emotsional va ekspressiv holatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Frazeologizmlar- tilning emotsional-ekspressiv vositalari.

Tilning lug'at tarkibida faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrasis – ”ibora”, logos – ”so'z” ma'nosida) deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlarning turg'unbirikmasidir. Masalan, boshiga ko'tarmoq, tilini bir qarich qilmoq, kovushini to'grilamoq, juftakni rostlamoq, olam guliton , katta og'iz kabi.

Frazeologizmlarning tarkibida necha so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional – ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llaniladi.

⁴ А.И.Смирницкий. Лексикология английского языка. М., 1956.

Hushyor boq, to foniy umr kechadi,
Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.
Biri qora hasad hasad yo g'araz toshi,
Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi.
Ular sabr kosang to'ldirmoq bo'lar,
Ular umr gulin so'ldirmoq bo'lar.

(A.Oripov)

Frazeologizmlar uch turli bo'ladi: frazeologik qorishmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar. Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi: hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda), so'zida (to'g'ri ma'noda) turmoq (ko'chma ma'noda) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq (maqtamoq), eti suyakka yopishgan (ozg'in), yuragi orqasiga tortmoq (qo'rqmoq) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig'ida bosmoq, oyog'ini tirab olmoq kabi.

Frazeologik qo'shilma yoki frazeologik butunliklar so'zlarni o'zaro biriktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Shuningdek bag'ri tosh va mehri tosh iboralar frazeologik sinonimlar bo'lib, ularga o'z ma'nosi bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'ngli bo'sh va mehri bo'sh iboralar frazeologik antonimlardir. Ba'zan frazeologizmlar shaklan to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi. Bunday holat frazeologik omonimiya deyiladi: javobini bermoq – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida hosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlari o'zaro birikib, yaxlit holda qo'llanilishi natijasida singib ketadi. Masalan, joyiga keltirmoq, o'rniga qo'ymoq iboralar erkin birikmalarni eslatadi. Lekin, ular ko'chma ma'noda qo'llanib, "ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq" ma'nolariga ega bo'lgan. Frazeologizmlarning ko'chma ma'nolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay to'g'ri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining

sintaktik birikivi ham turlicha bo'ladi: olam guliston, ta'bi xira, qorasi o'chmoq, yuragi qora, o'ziga kelmoq, o'rta tashlamoq, katta gapirmoq kabilar.

Tarkibida taqlid so'zlar bo'lgan frazeologizmlar alohida ko'chma ma'nolari bilan ajralib turadi: yuragi duk-duk qilmoq, piq-piq qilmoq, taq-taq- etmoq kabi.

Ba'zi frazeologizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar ham ishtirok etishi mumkin: infarkt qilmoq, doklad o'qimoq, gapning indollosini aytmoq kabi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o'zaro birikivi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi.

I.1. So'zlar bog'lanmasi va uning turlari.

Frazeologiya tilshunoslik predmetlaridan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Frazeologiya ma'lum bir tildagi barqaror so'zlar bog'lanmasi bo'lmish frazeologizmlar to'g'risida bahs etadi. Frazeologizmlar, uning xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishdan oldin so'z va so'zlar bog'lanmasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish kerak.

So'zlar bog'lanmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z (o'zak) ning o'zaro aloqaga kirishidir. Bunda so'zlar semantik va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi. So'zlar

bog'lanmasidan ma'lum tushuncha yo tasavvur (*ko'zoynak, qishloq xo'jaligi*) yoki murakkab tushuncha (*shahar aholisi, og'ir yigit*) yoxud nisbiy tugal fikr (*havo issiq, o'pkasi to'ldi*) anglashiladi.

Shunday qilib, gapda ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z semantik va grammatik tomondan aloqaga kirib, ma'lum tushuncha, tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni bildiradigan til birligiga **so'zlar bog'lanmasi** deyiladi.

So'zlar bog'lanmasi tarkibidagi so'zlarning (elementlarning) o'zaro aloqaga kirishi, aloqaga kirgandan keyin butunligicha yo ayrim holda anglatadigan ma'nosi jihatdan uch asosiy guruhga bo'linadi: a) qo'shma so'zlar bog'lanmasi; b) erkin so'zlar bog'lanmasi; d) barqaror so'zlar bog'lanmasi.

Endi so'zlar bog'lanmasining har bir turini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Qo'shma so'zlar bog'lanmasi⁵. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi yoki leksik bog'lanma ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topgan bo'ladi. Bunday bog'lanmadagi so'zlar (o'zaklar) o'zaro aloqaga kirgach, ulardan yangi bir ma'no anglashiladi. Albatta, bular ko'chma ma'nolar bo'lmay, balki to'g'ri ma'nodir. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi bir tushuncha yoki bir tasavvurni ifodalab, bir bosh urg'u bilan aytiladi va gapda butunligicha bir vazifani bajarib keladi. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi shaklan uch turlidir:

a) o'zaklari birga keladigan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *Beshyog'och, Qiziltepa, gulihamishabahor, Shofayziquloq* kabilar;

b) o'zaklari ayrim keladigan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *qishloq xo'jaligi, aloqa bo'limi, O'rta Osiyo, soda gap* kabilar;

c) o'zaklari qisqartirilgan qo'shma so'zlar bog'lanmasi: *BMT, GES, TerDU, ToshDU* kabilar.

Shunday qilib, ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z (o'zak) bir bo'lib, ma'lum tushuncha yo tasavvurni ifodalab, bir ma'no anglatib, bir bosh urg'u bilan aytilib, gapda butunligicha bir vazifani bajarib, bunday bog'lanma **qo'shma so'zlar bog'lanmasi** sanaladi.

Erkin so'z bog'lanmasi. Erkin so'z bog'lanmasida ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z semantik va grammatik tomondan o'zaro aloqaga kirgan bo'ladi. Bunday bog'lanmalarda har bir element o'z leksik ma'nosini saqlab, gapda ma'lum vazifani bajaradi. Erkin bog'lanmalar murakkab tushuncha yo tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni anglatib keladi.

Masalan, *Yuqori hosilni Anorxon zvenosi berdi*. (I.Rahim). Bu gapda to'rtta erkin so'z birikmasi bor:

a) *yuqori hosil* – so'z birikmasi;

⁵ Bu o'rinda teng aloqali so'zlar bog'lanmasi, uning ikki turi: juft so'zlar bog'lanmasi (ota-ona, shahar va qishloq kabi), takroriy so'zlar bog'lanmasi (asta-asta, katta-katta kabi) to'g'risida maxsus to'xtamadik.

b) *hosilni berdi* – soʻz birikmasi;

v) *Anorxon zvenosi* – soʻz birikmasi;

g) *zvenosi berdi* – gap.

Demak, gapda ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzdan tarkib topgan, semantik va grammatik tomondan aloqaga kirgan, maʼlum bir murakkab tuchuncha yo tasavvurni yoki nisbiy tugal fikrni ifodalagan bogʻlama **erkin soʻzlar bogʻlanmasi** deyiladi.

Yuqorida keltirilgan misollar va taʼrifdan koʻrinayotirki, erkin soʻzlar bogʻlanmasi murakkab tuchuncha yo nisbiy tugal fikrni ifodalashi, umuman, qanday vazifani bajarishi jihatdan ikkiga boʻlinadi:

a) *soʻz birikmasi*, b) *gap*.

I.2. Ibora va uning maʼno tarkibi.

Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi soʻz maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Koʻpincha maʼnosi bir soʻzga teng va koʻchma boʻladi. Soʻzning bunday barqaror bogʻlanmasi ibora (frazologik birlik)dir.

Tilshunoslikning iborani oʻrganuvchi maxsus boʻlimi **frazologiya** deyiladi.

Qismlari qatʼiy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, koʻchma maʼno anglatib, gapda butunligicha bir boʻlak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma **frazologik birikma (ibora)** deyiladi: *Eshon mayizning tagiga turna ekibdi (“tugatmoq”) – Boshi osmonga yetdi (“xursand”).*

Soʻz ham, ibora ham lugʻaviy birlik sanaladi. Tilning lugʻat boyligini tashkil etadi. Ibora soʻz birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil boʻlmaydi, balki xuddi soʻz kabi tilda tayyor holda boʻladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

Ibora ham, xuddi soʻz kabi, shakl va maʼno butunligiga ega. Soʻzning shakliy tomoni tovushdan iborat boʻlsa, iboraning shakliy tomonini soʻz tashkil etadi: rahmdil $(r+a+h+m+d+i+l)$ – koʻngli boʻsh $(koʻngli+boʻsh)$ xursand $(x+u+r+s+a+n+d)$ – boshi osmonga yetdi $(boshi+osmonga+yetdi)$.

Ibora tarkibidagi soʻz mustaqil maʼnoga ega emas. Ibora soʻz yigʻindisining koʻchma maʼnosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir necha soʻz bir butunligicha gap boʻlagi vazifasida keladi: *Koʻz ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo boʻldi. (A.Qah.) Koʻz ochib-yumguncha* iborasining maʼnosi “juda tez” va gapdagi vazifasi – payt holi.

Lugʻaviy birlik sifatida ibora soʻzga xos qator xususiyatga ega.

Iboraning ma'no tarkibi. Iboraning ma'no tarkibi frazeologik va qo'shimcha ma'nodan iborat.

Frazeologik ma'no. Tilda ham shakl va ma'no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi — tovush — ko'zda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farq qilinadi, bulardan tom ma'nodagi shakl — birinchisi.

Yolg'iz shaklning o'zi hali til birligi emas. Til birligi bo'lish uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no birkiritilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqning o'zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki biror shaklga bunday ma'no tilda (til bosqichida) birkiritilgan bo'ladi, nutq shuni qalqitib beradi,

Ma'lum shaklga ma'lum bir ma'noning birkiritilishi affikslarga ham xos. Masalan, **boradi** so'zi tarkibidagi **-di** affiksiga «III shaxs» ma'nosi, **-a** affiksiga «hozirgi-kelasi zamon» ma'nosi birkiritilgan. Bunday affikslarning ma'nosiga grammatik ma'no deyiladi. Shu so'z tarkibidagi **bor** – qismidan esa tamoman boshqa tip ma'no anglashiladi. Bu qism «makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanib yo'nalish» ma'nosini anglatadi. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi bunday ma'noga leksik ma'no deyiladi. Leksik ma'noni anglatuvchi birlikka leksema deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi birlikka morfema deyiladi. So'z ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik ma'noga ega bo'ladi, demak, u odatda leksema bilan morfemadan tuziladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush tizimi ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi (**-chilik – chi + -lik kabi**). Shuningdek, tub leksemada uning ifoda plani deb tovush tizimiga aytilsa, yasama leksemada uning tarkibidagi leksema va morfemalar ko'zda tutiladi: talabchanlik—(talab + chan +)lik kabi. Ko'rinadiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari — tovush — olinadi; tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan (leksemadan) tarkib topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar (leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Tarkibli morfemaning, leksemaning ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi, til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi.

Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora

tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi. Xususiyl (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni to'g'ridan tug'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi boglanish shartlilik kashf etadi. Bu yerda bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *til tegizmoq* iborasi «sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq» ma'nosini anglatadi. Bu ma'no to'g'ridan-to'g'ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, *Batareyaga til tegizsam, hech toki yo'q ekan* gapida erkin birikma ishlatilgan. Bunday ishlatishda *til* va *tegizmoq* so'zlari ma'no mustaqilligini saqlab bog'lanadi, ma'noda yaxlitlanish yuz bermaydi. *Kechagi majlisda menga ham til tegizibdi* gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas, balki ibora qatnashmoqda. Chunki bu gapda *til* va *tegizmoq* so'zlaridan emas, balki *til tegizmoq* iborasidan foydalanilgan. Endi *til* va *tegizmoq* so'zlariga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi haqida emas, balki ustama ko'chma ma'no haqida gapirish lozim. Bunday ma'no obrazga suyanib yuzaga keladi: tegizish harakatidan kelib chiqsak, *til* deganda fiziologik organni tushunish kerak, ammo bu o'rinda *til* so'zining boshqa ma'nosi («nutq») qatnashadi, *tegizmoq* fe'lining ma'nosi shu «nutq» ma'nosini «gap, so'z» ma'nosi darajasiga konkretlashtiradi (tegizish harakati uzoq davom e'tmaydi). Ayni vaqtda biror so'z, gapni beg'araz aytish emas, «tegizib» aytish ko'zda tutiladi, shundan aytiladigan so'z-gapning «nomaqbul» bo'lishi kelib chiqadi va boshqalar. Yuqoridagicha obrazli tasavvurlar oqibati sifatida ayrim-ayrim so'zlarning ma'nosi ikkinchi planga o'tib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma'no anglashiladi. Ana shunday ma'no frazeologik ma'no bo'ladi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi.

Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *Qizim boshimni osmonga yetkazdi (A.Qah.) Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi. (I.Rah.)* Birinchi gapda harakat (“juda xursand qildi”), ikkinchisida belgi (“juda yaxshi”) ifodalangan. Iboraning atash ma'nosi biror so'zning atash ma'nosiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi so'zda ko'pincha bo'lmaydi yoki so'zlikidan “kuchli” bo'ladi. Masalan, *xufiya* so'zi va *yeng ichida* iborasining atash ma'nosi bir xil. Ammo iborada uslubiy va hissiy ma'no mavjud.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan so'zning leksik ma'nosidan farqlanadi. Chog'ishtiring: *xufiya – yeng ichida, beqiyos – yer bilan osmoncha, xursand – og'zi qulog'ida*. Ayrim ibora bildirgan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: *Qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi*.

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (*shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi*) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin (*og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, tili tutildi, temirni qizig'ida ur*). Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'no anglatadi (*boshi osmonga yetdi, tepa sochi tik bo'ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi*).

Ibora tarkibidagi so'z boshqa oddiy birikmadagi so'zga shaklan o'xshab qolishi mumkin: *1.Qodirqul mingboshining bunaqangi ishlarga suyagi yo'q (H.Hak.) – Bu go'shtning suyagi yo'q. 2.Mirzakarimboyning qo'li uzun, bu ishlarni uddalaydi (Oyb.) – Basketbolchining qo'li uzun edi*. Bunday holda frazeologik ma'no matnga qarab aniqlanadi.

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr chalkashligiga olib keladi.

Ibora so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi:

- 1) so'z birikmasi shaklidagi ibora: *anqoning urug'i, bosh ko'tarmoq, og'ziga olmoq.*
- 2) gap shaklidagi ibora: *ko'zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi.*

Iboraning ham so'z kabi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi mavjud:

I.2.1. Iboraning shakl va ma'no jihatiga ko'ra turlari.

Ko'p ma'noli ibora. Bittadan ortiq ma'noni anglata olish til birliklariga xos xususiyat bo'lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar anchagina; to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi. Masalan, *bosh(i)ga qilich kelsa ham* iborasi bitta ma'noni, *aql(i) yetadi* iborasi ikkita ma'noni, *bo'yn(i)ga qo'ymoq* iborasi uch ma'noni, *qo'lga olmoq* iborasi esa to'rt ma'noni anglatadi.

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo'lganidek, bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi.

Masalan, *ikki qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib* iborasi ikki ma'noli: 1) «quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay», 2) «bekorchi bo'lib, biror foydali mehnat bilan shug'ullanmay». Bu ma'nolar o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshqa-boshqa voqelik yotadi: birinchisida band qo'l bilan borib (nimadir olib borib), bo'sh qo'l bilan qaytish, ikkinchisida esa qo'lni biror yumush bilan band qilmaslik.

Frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini ba'zan ibora tarkibidagi so'z-komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan, *xayol(i)ga kelmoq* iborasi ikki ma'noli: 1) «o'ylanmoq, idrok qilmoq, fahmlamoq», 2) «xotirasida tiklanmoq». Bu ibora tarkibidagi xayol so'zi birinchi frazeologik ma'noda «o'y, fikr» ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa «xotira» ma'nosi bilan qatnashgan. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli ibora deyiladi: **Bosh ko'tarmoq:** 1) “*sekin sog'aymoq*”; 2) “*sekin qaramoq*”; 3) “*qo'zg'olon qilmoq*”; **o'ziga kelmoq:** 1) “*sekinlik bilan tushunmoq*”; 2) “*sekinlik bilan sog'aymoq*”; **ko'zi ochildi:** 1) “*qoqilib tushundi*”; 2) “*ko'rdi*”.

Omonim ibora. Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi — omonimiya — frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi: *qo'l ko'tarmoq I* va *qo'l ko'tarmoq II* kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora

orasida voqe bo'ladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarida teng keladi: *qo'l ko'tardim*, *qo'l ko'taradi* kabi. Shunga ko'ra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin.

Odatda bir variantli iboraga ko'p variantli iboraning bir varianti shaklan teng kelib qoladi: *gap tegdi I* va *gap tegdi II* (keyingisining yana *gap tegizmoq* varianti bor) kabi. Shaklan teng kelish ko'p variantli ikki iboraning ba'zi variantlari orasida ham sodir bo'ladi: *gap(i)da turmoq I* [variantlari: *so'z(i)da turmoq II*; *lafz(i)da turmoq*] va *gap(i)da turmoq II* [varianti: *so'z(i)da qattiq turmoq*] kabi. Keyingi ikki tur omonimiya asli omofoma hodisasiga teng.

Omonimik muosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo'ladi: har ikki ibora tarkibidagi bir komponent omonim bo'ladi, boshqa komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan, *o'ng kelmoq I* va *o'ng kelmoq II* iboralari tarkibidagi fe'l komponentlar ayni bir so'z bilan, ism komponentlar esa omonim so'zlar bilan ifodalangan: birinchi ibora tarkibida *ters* sifatining antonimi, ikkinchi ibora tarkibida esa *tush* otining antonimi qatnashadi.

Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so'zlarning o'zi bo'ladi. Bunda ikki holat bor:

a) Iboralar tarkibidagi so'zlar har xil leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Masalan, *dam bermoq I* va *dam bermoq II* iboralari tarkibida fe'l komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa-boshqa leksik ma'nosi bilan qatnashgan (*dam 1* — «havo», «yel»; *dam 2* — «istirohat»),

b) Iboralar tarkibidagi so'zlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyani izohlashda so'z-komponentlarga suyanib bo'lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi (Frazeologik omonimiyaning yuqorida bayon qilingan turlarini ham asli shunday yo'l bilan izohlash asosli bo'ladi). Masalan, *ichag(i) uzildi I* va *ichag(i) uzildi II* iboralari tarkibidagi so'z-komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi iborada qattik va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo'lishidan, ikkinchi iborada esa uzoq, muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishidan obraz olingan.

Bir xil qism (so'z) dan tuzilgan, ya'ni shakli o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi: *uyni boshiga ko'tarmoq* – *onasini boshiga ko'tarmoq*. Misollar: 1. *Ilgari bir qatra og`zimga olmas edim (Oyb.)* 2. *Komissiya hayron bo`lib qoldi, ammo hech kim meni og`ziga olmas edi. (A.Qah).*

Sinonim ibora. Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng

ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq* — *yer bilan yakson qilmoq* iborasi *kulini ko'kka sovurmoq* — *kuli ko'kka sovurildi* iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlaridan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz*; *bir shingil*; *bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: *so'zlash organi*; *bir bosh uzumning qismi*; *chimdib olinadigan miqdor*.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, «butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha» ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha*, *miridan sirigacha*, *qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jon(i)ni hovuchlab va yurag(i)ni hovuchlab* — sinonim iboralar: bir leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas. *Ko'ngl(i)ga tugmoq bilan yurag(i)ga tugmoq* o'zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim,

Sinonimiya — ma'no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik *tan olmoq* iborasiga polisemantik (uch ma'noli) *bo'yn(i)ga olmoq* iborasi birinchi ma'nosida sinonim bo'ladi. Bu uch ma'noli iboraning ikkinchi ma'nosiga sinonim yo'q, ammo uchinchi ma'nosiga *zimma(si)ga olmoq* iborasi birinchi ma'nosida sinonim (keyingi ibora uch ma'noli bo'lib, qolgan ikki ma'nosiga sinonim yo'q).

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, *ta'zir(i)ni yemoq* iborasi qatnashadigan uya ikki

sinonimdan, *bir yostiqaqa bosh qo'ymoq* iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, *es(i)ga tushmoq* iborasi qatnashadigan uya esa to'rt sinonimdan iborat. Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ibora sinonim ibora (frazologik sinonim) deyiladi: *toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq; yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq; terisiga sig'madi – boshi osmonga yetdi.*

Lug'aviy birlik sifatida ibora so'z bilan sinonimlik tashkil qila oladi: *g'azablanmoq – joni chiqmoq, sevmok – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko'klarga ko'tarmoq.*

Antonim ibora. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda, ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiya da bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: *savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko'kka ko'tarmoq* kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar o'zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar—ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so'zlar: *yurag(i) keng va yurag(i) tor.* boshqa bir misol: *ko'ngl(i) joyiga tushdi va yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi,* Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi esa o'zaro ma'no munosabati hosil qilmaydi. Ko'rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so'z-komponentlar bu iboralarning o'zaro antonim bo'lishida muhim rol o'ynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim so'z-komponentlar qatnashavermaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lug'aviy ma'no asosida belgilanadi.

Sinonimiyada bo'lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir ma'nosiga antonim bor bo'lishi, boshqa bir ma'nosiga esa yo'q bo'lishi mumkin. Masalan, *savol bermoq* monosemantik iborasiga besh ma'noli *javob bermoq* iborasining birinchi ma'nosi antonim (qolgan to'rt ma'nosiga frazeologik antonim yo'q.).

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora (frazologik antonim) deyiladi: *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq; qo'li uzun – qo'li kalta, ko'ngli oq – ichi qora.*

I.2.2. Iboraning so`z, gap va so`z birikmasiga munosabati.

Ibora so`z, gap, so`z birikmasiga o`xshash va farqli belgiga ega.

Ibora va so`z. So`z ham, ibora ham tuchuncha ifodalaydi va gapda bir bo`lak vazifasida keladi.

So`z tovushdan, ibora esa so`zdan tashkil topadi.

So`z to`g`ri va ko`chma ma`no, ibora faqat ko`chma ma`no ifodalaydi.

So`zning ma`no tarkibida qo`shimcha ma`no bo`lmasligi mumkin. Iborada esa har doim qo`shimcha ma`no mavjud.

Ibora va so`z birikmasi, gap. Iborani tashkil etuvchi so`z barqaror aloqaga ega. So`z birikmasi va gapning tashkil etuvchisi erkin bog`lanadi.

Ibora nutqqacha tayyor holda bo`ladi. So`z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

So`z birikmasi va gapni o`zgartirish mumkin. Iborani “buzish” mumkin emas.

I.3. Frazeologizmlarning morfologik xususiyati.

Hozirgacha frazeologizmlarning semantik tabiati, semantik tasnifi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uslubiy xususiyatlari ko'pgina ilmiy izlanishlar manbai bo'lgan. Lekin frazeologizmlar "tilshunosligimizda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari etarli darajada o'rganilmagan".⁶

To'g'ri, grammatik xususiyatlari to'g'risida butunlay fikr yo'q demoqchi emasmiz. Masalan, Sh. Raxmatullaevning 1952- yilda yozilgan nomzodlik ishi bu boradagi ishlarning debochasidir va hozirgacha turli olimlar tomonidan davom ettirilmoqda. Lekin ko'proq ularning sintaktik xususiyatlariga e'tibor berilib, morfologik nuqtai nazardan kamroq o'rganilgan. Masalan, adabiyotlarda fe'l (*aravani quruq olib qochmoq, arpasini xom o'rmoq*), ravish (*bir og'izdan, tomdan tarasha tushganday*), sifat (*bag'ri keng, yuragi toza*) frazeologizmlar borligi ta'kidlanadi va asosan fe'l frazemalarning morfologik, ya'ni turli lug'aviy va aloqa munosabat shakllariga munosabati haqida fikr yuritiladi.

Haqiqatdan ham frazeologizmlarning aksari fe'l turkumiga xos: *aqlini yo'qotmoq, kosasi oqarmoq, boshiga ko'tarmoq, ko'ngli yorishmoq* va h . Bular turlana oladi. Masalan, *aqli(m\ng)ni yo'qotdi\yo'qotdim\yo'qotding*. Bu holatda birinchi komponentda egalik ham qo'shilib o'zgarib borayotganini ham kuzatish mumkin. Shunday ekan, bunday frazemalarni to'liq fe'l iboralar deb aytsa to'g'ri bo'ladimi? Yoki *ko'ngli yorishmoq* frazemasi har qanday shaxsda kelsa ham shaxs-son qo'shimchalarini olmaydi: *ko'ngli(m\ng) yorishdi*.

⁶ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004, 151-b.

Ma'lumki, so'z turkumiga ajratishda so'zning semantik, morfologik, sintaktik belgilariga tayaniladi. Yuqoridagi iborada semantik nuqtai nazardan psixik harakat ekanligi anglashilib tursa-da, morfologik tomondan turli shakllarga ega bo'la olmaydi. Misollar shuni ko'rsatadiki, fe'l iboralarning morfologik tabiati so'z fe'llarning morfologik xususiyatlaridan boshqacharoq. Shuning uchun bu iboralarning fe'lning har bir kategoriyasiga munosabati va paradigmasini tuzib chiqish kerak bo'ladi.

Ushbu malakaviy ishda frazeologizmlarning turkumlarga bo'linishi hamda turkumlarning har bir kategoriyasiga munosabati va paradigmasini tuzib chiqishga harakat qildik. Quyida shular haqida fikr yuritimiz.

Paradigmatik formalari. Iboralarning paradigmatik formalari (turlanishi, tuslanishi kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: *bosh egdim, bosh egding* kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim III shaxs formasida turadi (Ibora tarkibida qatnashayotgan ega shuni talab qiladi). Masalan, *ko'z tegdi* iborasini tuslab bo'lmaydi.

Bu ikki tur fe'l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalarida o'zgarish har ikkida voqe bo'laveradi: *bosh egdim; ko'z tegsa, bosh egibdi, ko'z tegibdi* kabi. Bunday iboralarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektida ham kelaveradi: *bosh egaylik va bosh eg maylik* kabi.

Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z-komponentdan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z-komponent ko'pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi qatnashadi: *ko'ngl(i)ga kelmoq, ko'ngl(i) yorishdi* kabi. Ana shu egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: *ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi, ko'ngli yorishdi* kabi.

Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Bunda ikki holat mavjud:

1) Tuslovchi bilan egalik affiksi shaxs-sonda muvofiqlashib yuradi: *ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz* kabi. Bunda ayni shaxs-son ma'nosi ikki marta ifodalanadi.

2) Tuslovchi bilan egalik affiksi boshqa-boshqa shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o'zgaradi: *ko'nglini topdim, ko'nglingni topsin* kabi.

Ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi; *ko'nglingni buzdim, ko'nglimni buzdim* kabi.

Ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini o'zgartib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud: *ko'nglim bo'sh, ko'ngling bo'sh; oyog'ingni qo'lingga olib, oyog'ini qo'liga olib* kabi.

Ba'zi iboralar sintaktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'la turib doim III shaxsda ishlatiladi. Masalan, *bosh(i)dan oshib yotmoq*, iborasi faqat III shaxsda keladi, chunki tuslanishida narsa bilan bog'lanadi. Ba'zi iboralar grammatik qurilishida doim III shaxs egalik affiksi qatnashadi, chunki egalik olib nisbatlanishida bunday ibora narsa bilan bog'lanadi: *mag'zini chaqmoq, misi chiqdi* kabi. Bunday hodisa fe'l bo'lmagan frazeologik birliklarda ham mavjud: *boshini yeb II, ko'nglida kiri yo'q, ichi qora* kabi.

Ayrim iboralarda ot so'z-komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik formalari qo'shiladi (III shaxs egalik affiksi son jihatdan neytral): *gapimiz bir joydan chiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi* kabi.

Faqat ko'plik tuslovchisini olib keladigan iboralar ham uchraydi: *gapni bir joyga qo'ydik, gapni bir joyga qo'yishdi yoki qo'ydilar* kabi.

Ot so'z-komponenti bilan tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o'zgaradi, son formasini o'zgartadi: *ammamning buzog'i, ammamning buzog'ini, ammamning buzoqlaridan; tosh bag'ir, tosh bag'irlar, tosh bag'irlarga* kabi.

Misollardan ayonki, tuslanish, egalik affiksi olib o'zgarish (nisbatlanish) odatda kishi bilan bog'lanishda sodir bo'ladi, narsa bilan bog'lanishda esa doim III shaxs tuslovchisi yoki egalik affiksi keladi.

II BOB. “keep” fe’li yordamida yasalgan iboralarning grammatik xususiyatlari.

II.1. “keep” so’zining gap strukturasi qo’llanishi.

Ma'lumki, keep so'zi hozirgi zamon ingliz tilida asosan fe'l sifatida qo'llaniladi. Bu so'z ba'zi hollarda ot vazifasida keladi, for predlogi bilan qo'shib esa ravish funksiyasida kelishi ham uchraydi.

Biz quyida to keep fe'lining turli so'zlar bilan birikma hosil qilib keng qo'llanishini atroflicha o'rganib chiqamiz.

Keep so'zining fe'l sifatidagi asosiy lug'aviy ma'nosi

- 1) saqlamoq- You may keep the book for a month. Siz bu kitobni bir oy davomida saqlab turishingiz mumkin.
- 2) to keep hold of something – biror narsani o'zida saqlab turmoq; birovga bermaslik.
- 3) asramoq, qo'riqlamoq.
- 4) biror qoidaga, shartoma va hokazolarga amal qilmoq.
- 5) so'zida, va'dasida turmoq; qonunga bo'ysunmoq
- 6) ma'lum bir holatda, vaziyatda o'zgarishsiz qolmoq. Masalan: the weather keeps fine- Ob-havo yoqimli bo'lib turibdi. To keep one's bed – joyidan turmasdan yotavermoq; o'rnidan turmaslik.
- 7) yangiligini saqlab qolmoq, eskirib qolmaslik. Masalan: It is only good news that keeps. Faqatgina yaxshi xabarlar eskirib qolmasdan kutib turishi mumkin. Meat will keep in the cellar. Go'sht yerto'lada yaxshi saqlanadi.
- 8) bir ishni qilishda davom etmoq. Keep moving! Harakatlaning, to'xtab qolmang. (Yo'lingizda davom eting, ushlanib qolmang ma'nosida ham qo'llash mumkin). He kept laughing the whole evening. U butun oqshom davomida kulishdan to'xtamadi.
- 9) biror ishni qilishga majbur etmoq. Bu holda keep o'zidan keyin keluvchi murakkab to'ldiruvchi bilan qo'llanadi. He kept me waiting. U meni kutishga majbur qildi.
I won't keep you long. Men sizni uzoq vaqt ushlab turmayman.
- 10) ega bo'lmoq; to keep a shop – o'z do'koniga ega bo'lmoq; to keep a garden boqqa egalik qilmoq;
- 11) oilasini boqmoq, ta'minlamoq to keep a family – oilasini ta'minlamoq;
- 12) qo'l ostida yordamchisi, xizmatkoriga ega bo'lmoq; to keep a cook – oshpaziga ega bo'lmoq;
- 13) boshqarmoq; to keep a house – uyini, xo'jaligini boshqarmoq;
- 14) sotuvda bo'lmoq; - Do they keep post cards? – ular pochta otkritkalari sotishadimi?
- 15) kundalik daftar tutmoq(yuritmoq); hisoblashni yuritmoq;
- 16) qo'riqlamoq, himoya qilmoq; to keep the town against the enemy – shaharni dushmandan himoya qilmoq; to keep the goal – darvazabonlik qilmoq;
- 17) sir saqlamoq, yashirmoq, berkitmoq; to keep a secret – sir saqlamoq; You are keeping smth. From me – Siz nimanidir mendan yashirayapsiz.

- 18) o'zini tiymoq; to keep (in) one's feelings – his-tuyg'ularini tuymoq;
- 19) ushlab turmoq; to keep the children after school – bolalarni darsdan keyin ushlab turmoq;
- 20) bayram qilmoq, nishonlamoq; - to keep one's birthday – tug'ilgan kunini nishonlamoq;
- 21) yashamoq; istiqomat qilmoq(ko'proq og'zaki nutqda ishlatiladi). Where do you keep? – qayerda yashayapsiz (istiqomat qilayapsiz)?
- 22) mashg'ulotlarni o'tkazmoq(og'zaki nutqda) ishlamoq; school keeps today – Bugun maktabda darslar bo'ladi.

To keep fe'li o'zidan keyin keladigan bir qator predloglar bilan birikib turli ma'nolarda qo'llaniladi.

II.2. “keep” fe’li yordamida yasalgan frazeologik birliklarning sintaktik-semantik tahlili.

Frazelogiya ilmiy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan distributive metoddan foydalanish mumkin. Frazelogizmlarning nutqda ishlatilishi xususiyatlarini distributiv metod yordamida o’rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari, frazeologizmlarni o’rganishda ularning semantik va struktural belgilarini tilning mazmun plani bilan uning ifoda plani munosabati borasida qaramoq zarur. Frazelogizmlarning sostavini tekshirishda uning komponentalari o’rtasidagi birikish turlarini, birikuvchi so’zlarning tabiatini valentlik metodi asosida qaramoq zarur.

Frazeologizmlarning strukturasi va ma’nolarini bir-biriga qarama-qarshi qo’yish (oppozitsiyada) aniqlilarga olib keladi. Frazelogizmlarning grammatik tomonarini ham hisobga olish zarur. Chunki frazeologizmlarning komponentalari o’rtasida sintaktik aloqalar, ularga qo’shiluvchi affikslar muhim rol o’ynaydi.

1) keep abreast of – 1. ortda qolmaslik, 2. xabardor bo’lmoq, zamon bilan hamnafas bo’lmoq. ... what young doctors needed to do was to keep abreast of the latest medical developments.(Th.Dreisel, “Twelve men”, “The Country Doctor” p.42) ...yosh shifokorlar qilishlari kerak bo’lgan muhim vazifa tibbiyot sohasidagi eng so’nggi yutuqlardan xabardor bo’lish edi.

2) keep afloat – qarzga botmaslik, zo’rg’a qo’l uchida kun kechirmoq.

3) keep dark – 1. yashirinmoq, berkinmoq, ko’zdan narida yurmoq. 2. sir saqlamoq. It’s no less than natural he should keep dark: so would you and we in the same box. Uning yashirinishga majburligi mutlaqo tabiiy: uning o’rnida bo’lganimizda siz men ham xuddi shunday yo’l tutgan bo’lar edik. (R.L.Stevenson, “The Wrecker”, ch. XVII. P. 107.)

You know I have kept everything as dark as possible up to the present, for it’s foolish to talk first and fail afterwards. (H.G.Haggard, “Stella Fregelius”, ch. XIII)

Bilasizmi, men hamma narsani to shu paytgacha sir saqlab keldim, chunki avval gapirib, keyin esa uni uddalay olmaslik ahmoqlikdir.

4) keep going – 1.to’xtab qolmasdan davom ettirmoq. 2.harakat qilishda davom etmoq, bo’sh kelmaslik. This is exhausting work, but I manage to keep going.

Bu holdan toydiradigan ish, ammo men bo’sh kelmasdan davom ettiraman. (R.Aldington, “All Men are Enemies”, ch.XI.)

5) keep one’s chin (pecker) up – ruhi tushmaslik, o’zini qo’lga olmoq.

I know how you feel lad, but don't fret... I'll see what can be done. And at the meantime keep your pecker up. (A.Cronin, "The stars look down", book II, ch.I)

Siz hozir nimani his qilayotganingizni tushunib turibman, do'sti, lekin g'am chekmang. Nima qilish mumkinligini o'ylab ko'raman. Siz esa ruhingizni tushirmang.

6) keep oneself to oneself – odamovi bo'lmoq; yolg'izlikni afzal ko'rmoq, odamlardan o'zini olib qochmoq. Our profession is dependent on politics and economy and it is vitally necessary to participate and not just keep oneself to oneself. ("Morning star", June 27, 1975)

Bizning kasbimiz siyosat va iqtisodni tushunishni talab qiladi va biz atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarda faol ishtirok etishimiz, o'zimizni odamlardan chetga tortmasligimiz kerak.

7) keep one's hair (shirt yoki wool) on – wizishib ketmaslik, o'zini qo'lga olmoq, o'zini tutmoq. Keep your shirt (hair) on. You're getting your pay every week. What's the matter with you? (U Sinclair, "100%", ch.35)

Qizishma. Maoshingni har hafta olayotgan bo'lsang. Senga yana nima kerak.

8) keep quiet about smth – nimanidir aytmaslik, sukut saqlamoq.

We've kept this and there's no need for shouting. (I. Murdoch, "The Blach Prince", part III.)

Biz bu haqda hech kimga hech narsa demadik. Shuning uchun shovqin ko'tarishning hojati yo'q.

9) keep shady – o'zini panaga tortmoq, ko'zga tashlanmaslik, yashirinmoq.

They were warned to keep shady if they valued their lives. (a.C.Doyle, "The Lost World", ch.VIII.)

Ularni joningiz aziz bo'lsa yashirining, deya ogohlantirishdi.

10) keep smb. dangling – birovni o'ta kuttirmoq, toqatini toq qilmoq.

Don't keep me dangling. Tell me if I passed the test. (DCE)

Toqatimni toq qilmang. Imtihondan o'tdimmi yo'qmi, shuni ayting menga.

11) keep smb. going – kimnidir qo'llab quvvatlamoq, (moddiy) yordam ko'rsatmoq, kimningdir hayotini saqlab qolmoq.

I was very ill, but the medicine he gave me kept me going. (DEI)

Men og'ir kasal edim, lekin u bergan dori hayotimni saqlab qoldi.

12) keep smb guessing – shubha uyg'otmoq, o'ylashga majbur etmoq.

She always tries to keep me guessing. (L.P.Hartley, "A Perfect Women", ch.XIII.)

U har doim jumboq savollar berib, o'ylashga majbur qiladi.

13) keep smth. to oneself – 1) fikrini to'liq bayon etmaslik, nimanidir sir saqlamoq.

You may keep your remarks to yourself. I don't want to hear them. (ALD)

Ta'kidlaringizni oxirigacha bayon etmasligingiz mumkin. Men ularni eshitishni xohlamayman.

2) rad etmoq, birov bilan bo'lishishni xohlamaslik.

He kept the good news to himself.(ALD)

U xushxabarni hech kim bilan bo'lishishni xohlamadi (istamadi).

14) keep abreast of (up) with the times – zamon(davr)dan ortda qolmaslik.

Sinonimi: march (move) with the time.

The trouble with you, my dear fellow – Henry replied, “is that you won't keep abreast of the times”. (P.H.Johnson, “Catherine Carter”, part II, ch.15)

Sizning muammoingiz shundaki, azizim, - Henri javob qildi,-“Siz zamon bilan hamqadam emassiz”.

15) keep a civil tongue in one's head – mulohaza bilan xushmuomala so'zlashmoq; xushmuomala bo'lmoq.

What does she want troubling me at this hour, before I am properly dressed to receive people?

Christie: You'd better ask her.

Mrs.Dudgeon (threateningly): You'd better keep a civil tongue in your head.

Missis Dadjen:Shu paytda meni bezovta qilish qanday qilib uning xayoliga keldi ekan?

Kristi: Yaxshisi uning o'zidan so'rasang bo'lardi.

Missis Dadjen (po'pisa bilan): Sen esa yaxshisi xushmuomala bo'lishni o'rgansang bo'lardi. (B.Show, “The Devil's Disciple”, act.1)

16) keep a still tongue in one's head – tilini tiyib yurmoq, tilini tiymoq, jim yurmoq.

I'll tell you what I know, because I believe you can keep a still tongue in your head if you like.

(G.Eliot, “Adam Bede”, ch.XXIII)

O'zimga ma'lum narsalarni sizlarga gapirib beraman, chunki bilamanki siz agar xohlasangiz tilingizni tiyishni bilasiz.

17) keep one's tongue between one's teeth – tilini tiymoq.

But Lui knew his place and managed to keep his tongue between his teeth.(J.London, “The Mutiny of the Elsinore”, ch.XIV)

Biroq Lui o'z o'rnini bilardi va tilini tiyib yirishni uddalardi.

18) keep a calm sough – indamaslik, kamgap bo'lmoq.

Keep a calm sough ... hear every man's counsel, and keep your own.(W.Scott, “The Abbot”, ch.XVII)

Kamgap bo'ling, odamlarning maslahatiga quloq tuting, o'zingiznikini bir chetga qo'yib turing.

19) keep a dog and bark oneself – iti bo'la turib, uning o'rniga o'zi hurmoq = qo'l ostidagi odamning ishini ham o'zi bajarmoq.

“What time is it?”. There was a clockright opposite him on the dining-room wall but Dover didn't believe in keeping a dog and barking himself.

“Just nine, sir”. (J.Porter, “Dover Two”, ch.XI)

“Soat necha bo’ldi?”

Uning qoq ro’parasida, ya’ni u o’tirgan oshxona devorida soat ilingan edi, lekin Dover xizmatini bajarmasa xizmatkor yollashning nima hojati bor, deb hisoblardi.

“Soat to’qqiz, ser”.

20) keep a firm (tight) hand on smb. – 1.kimgadir o’z hukmini o’tkazmoq, qo’li ostida saqlamoq.
2.o’zining qat’iy siyosatini yuritmoq, nimanidir nazorat qilmoq.

Mrs.Garlick’s chief hobby continues to be the small economy, “As she said one day to an acquaintance: it’s a good thing I can afford to keep a tight hand on things”.

(A.Bennet, “The Tight Hand”)

Missis Garlikning asosiy hobbisi xuddi avvalgidek ro’zg’ords mayday chuydalargacha o’ta tejamkorlik qilish edi.Bu xususda u tanishlaridan biriga shunday degandi: “Butun uyni o’z qo’limga olganligim juda yaxshi”.

21)keep one’s hand in – nimadir bilan shug’ullanishni davom ettirmoq.

I’m coming back ... not in the old way, of course. Just with an investmen here and there, I want to keep my hand in, you have the feel of the market .(J.Lindsay, “Lost Birthright”, ch.XV)

Men yana oldingi ishimga qaytdim, albatta eski tarzda emas. U bu sohaga biroz mablag’ tiqmoqchiman. Biznes bilan shug’ullanishni davom ettirib, bozor bilan munosabatni uzmaslikni xohlayman.

22) keep a firm rein on smb. (smth.) – kimningdir inon-ixtiyorini butunlay o’z qo’lida tutib turmoq.

Mr.Brodrick thought that they should do what called keeping a very firm rein on Master Galt’s activities. (A.Wilson, “A Bitt off the Map and other Stories”)

Mister Brodrik o’zi ifodali qilib aytganidek, yosh Goltning butun inon ixtiyorini o’z qo’lida tutib turish kerak deb hisoblardi.

23) keep a good heart – ruhini (kayfiyatini) tushirmaslik; o’zini tutmoq.

The sheriff soon arrived and took the twins away to prison.Wilson told them to keep heart and promised to do his best in their defence when the case should come to trial. (M.Twain, “Pudd’nhead Wilson”, ch.XIX)

Ko’p o’tmay sheriff yetib keldi va egizaklarni turmaga jo’natdi. Uilson ularga ruhini tushirmaslikni buyurdi va ish sudda ko’rilayotgan paytda ularni himoya qilish uchun qo’lidan kelgan hamma ishni qilishga va’da berdi.

24) keep a good house – mehmonlarni yaxshi kutib olmoq; mehmondo’st bo’lmoq. He only lives in a small cottage but he certainly knows how to keep a good house. (SPL.) Uning uyi kichkinagina bo’lishiga qaramasdan u mehmon kutishni joyiga qo’yardi.

25) keep house – uy ishlarini yuritmoq, o'z xo'jaligini boshqarmoq, uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lmoq.

She kept house well, was a good cook and punctual, but neither did nor said anything out of the ordinary. (W.Du.Bois, "World of Color", ch.XV) U uy boshqarishni a'lo darajada yuritardi, mohir oshpaz edi, hamma ishga o'z vaqtida ulgurardi, lekin hayotida hech qachon biror aqlli fikr yoki biror arzigulik ish ko'rsatmagandi.

26) keep one's the house – uydan chiqmaslik; biror jiddiy sabab tufayli, masalan og'ir kasallik tufayli yoki shunga o'xshash; biror sabablar bilan uydan chiqaolmay qolmoq.

27) keep open house – uyining eshigi mehmonlar uchun har doim ochiq bo'lmoq, mehmondo'st bo'lmoq, katta ziyofatlar uyushtirmoq.

Caroline Hand kept open house for Cowperwood inviting whomsoever he wished to receive there. (Th.Dreiser, "The Sloic", ch.VII)

Kerolayn Hend o'z uyida katta ziyofatlar uyushtirar va ularga Kaupervud ko'rish lozim bo'lgan odamlarni taklif etardi.

28) keep a jealous eye on ... - o'ta ehtiyotkorlik bilan avaylab asramoq, ko'z qorachig'idek asramoq, g'amxo'rlik ko'rsatmoq.

He keeps a jealous eye on his own interests. U o'z manfaati uchun xizmat qiladigan narsalarni ko'z qorachig'idek avaylab asrardi.

29) keep one's eye in smth. – nima bilandir shug'ullanishni davom ettirmoq, harakatni bo'shashtirmaslik.

... no one can say I don't keep my eye in. Bowis is my game, sir. (M.Dickens, "Joy and Josephine", part I, ch.IV)

Hech kim meni harakatlari susayib qolgan, deb ayta olmaydi. Kegli o'yini mening hayotim mazmunidir.

30) keep (have, put) all one's eggs in one basket – bor-budini garovga tikmoq; hamma narsasidan kechib tavakkal qilmoq.

A wise man does not put all his eggs in one basket. If a plan miscarries he tries another. (W.S.Maugham, "Then and Now", ch.XXIV)

Oqil kishi hamma narsasidan voz kechib tavakkal qilmaydi. Bir ejasi ish bermasa, boshqasini sinab ko'radi.

31) keep (have, put) all one's goods in the shop window – hamma narsasini ko'z-ko'z qilmoq, o'zi haqidagi hamma ma'lumotlarni oshkor etmoq.

"You're full of unexpectedness, Powley, I would never have thought you read anything but the sporting news".

"I don't put (keep) all my goods in the shop window." (W.S.Maugham, "Up at the Villa", ch.IX.)

Sizning turgan bitganingiz jumboq, Pauli. Sizni sport yangiliklaridan boshqa narsalarni ham o'qib turasiz deb, hech o'ylamagandim.

--Men o'zim haqidagi hamma ma'lumotlarni oshkor etmayman, -dedi miyig'ida kulib Pauli.

32) keep (have, hold) one's (an) ear (close) to the ground – 1.yer tagida ilon qimirlasa sezmoq, hamma narsadan boxabar bo'lmoq. 2.ommaning fikriga quloq tutmoq.

He knows what the people want because he listens to them and keeps his ear to the ground. (S.Heym, "The Eyes of Reason", book 1, ch.6.)

U xalqning nima istashini biladi, chunki u ularning dardini tinglaydi va ommaning fikriga quloq tutadi.

What's the gossip of the market, Tom? You fellows certainly do keep your ears to the ground. (C.P.Snow, "Homecomings", ch.34)

Bozrdagi narx-navlarhaqida qanday mish-mishlar bor, Tom? Siz muxbir og'alarimiz yer ostida ilon qimirlasa bilasizlar-ku axir.

33) keep (get, have got) an eye on smb. – ko'zdan qochirmaslik, muntazam nazorat qilmoq.

She was frying bacon and at the same time keeping an eye on the youner children. (W.S.Maugham, "Of Human Bondage", ch.118)

U tovada cho'chqa yog'ini eritar va bir vaqtning o'zida kichkintoylarni ham o'z nazaridan qochirmasdi.

34) keep (have) an eye (sharp eye) out for smb (smt) – birov(biror narsa)ni diqqat bilan kuzatmoq, o'ta hushyorlik bilan kuzatmoq.

In the thronger Zoo, Leventhal kept an eye out for Allbee. (S.Bellow, "The Victom", ch. 9)

Gavjum Zooparkda Leventhal mabodo Olbi izimga tushmadi ekanmi, deb o'ta hushyorlik bilan kuzatardi.

35) keep (have) one's eye on smb (smth) – kim(nima)nadir bir ko'zi bilan kuzatmoq, diqqat(e'tibor)ini bir necha tomonga qaratmoq.

It isn't easy to concentrate on one's work when you've got to keep one eye on a baby crawling all over the place. (ODCIE)

Qilayotgan ishingga diqqatingni jamlash qiyin, qachonki bir ko'zing bilan tinimsiz butun xona bo'ylab o'rmalab yurgan bolani kuzatishga majbur bo'lsang.

36) keep (have) one's eye on the ball – asosiy maqsad sari dadil intilmoq; har doim hushyor (tayyor) bo'lmoq.

He does it well, don't you think? Lawrence says he keeps his eye on the ball. (J.Galsworthy, "Flowering Wilderness", ch.VI.)

U bu ishni zo'r uddalayapti, shunday emasmi? Lorensning aytishicha, u maqsad sari dadil intilmoqda.

37) keep (have) one eyes glued on – 1.ko'z uzmasdan qaramoq, ko'z uzolmay qolmoq, 2.maroq bilan tomosha qilmoq.

The little girl had (kept) her eyes glued on a big dall in the shop window.(ALD) Qizcha magazine vitrinasiga qo'yilgan qo'g'irchoqdan ko'z uzolmay qoldi.

38) keep one's (both) eyes wide open = keep (have) one's weather eye open – diqqat, e'tibor, o'ta hushyorlik bilan kuzatmoq; qulog'i ding bo'lmoq; hushyorlikni qo'ldan boy bermaslik.

Josh has his weather - eye open, sir.You will find him tough ... and de-vil-ish sly. (Ch.Dickens, "Dombey and Son", ch.X).

Josh hushyorlikni qo'ldan boy bermaydi, ser. Siz hali uninig ayyor va iblisdek makkor ekanligini bilib olasiz.

39) keep (have) a rod in pickle (for smb) – kim uchundir jazo chorasini tayyorlab qo'ymoq.

She went away in an opposite direction, turning her head and saying to the unconscious Jim: "There is a fine rod in pickle for you, my gentleman, if you carry out that pretty scheme". (Th.Hardy, "The Romantic Adventures of a Milk-maid", ch.XV.).

U qarama-qarshi tomonga ketdi va o'girilib hech narsadan xabari yo'q Jimga murojaat qildi: "Agar o'zingizning o'sha ajoyib rejangizni amalga oshirishga urinib ko'rar ekansiz, janob, u holda sizni qattiq jazo kutadi".

40) keep smth. secret – nimanidir sir saqlamoq.

The task in which he was engaged was to be kept most strictly secret. (W.Scott, "Count Robert of Paris", ch.XXVII)

U bajarayotgan topshiriq qat'iy sir saqlanishi kerak edi.

41) keep a secret – sir saqlamoq; sir saqlay olmoq.

Tell him everything.he can keep a secret. Unga hammasini so'zlab bering. U sir saqlay oladi.

42) keep (carry) a stiff upper lip – o'zini mardlarcha tutmoq, kuchli irodasini namoyish etmoq, ruhan tetik bo'lmoq.

I want you to keep a stiff upper lip, whatever happens.. (Th.Dreiser, "The Financier", ch.XXIX)

Nima bo'lgan taqdirda ham,irodangiz bukilmaligini xohlayman.43) keep a tab (tabs) on smb (smth) – kimnidir (nimanidir) ortidan kuzatmoq, izidan tushmoq.

"So, you'll be keeping tabs on me? " "of course" "How?" "I can't tell you that".(A.Christie, "So many Steps to Death", ch.IV)

- Shunday qilib siz meni ortimdan kuzatmoqchimisiz?
- Albatta.
- Qanday qilib?
- Buni sizga ayta olmayman.

44) keep at bay (hold or have at bay) smth (smb) – nima(kim) nadir qattiq qo'rqitmoq, qo'rquv ostida saqlamoq, yuragiga dahshat solmoq.

All he had achieved was an animal who would keep him at bay, a woman who would hunt for every word to catch and turst in vulgar dispute. (J.Aldridge, "The Hunter", ch.1)

Uning peshonasi bitgani har doim yuragiga dahshat soluvchi yovuz maxluqqa o'xshash ayol bo'lib, uning og'zidan chiqadigan har bitta so'zga yopishib olib, navbatdagi janjalni boshlashga bahona izlardi.

45) keep a whole skin – o'z jinni asrab qolmoq.

... your anxiety to keep a whole skin justified yu in taking t your heels.

(Fr.Norris, "Marietta's Marriage", ch.XLIII)

Sizning qochib ketganligingizni faqatgina o'z jonini asrab qolish maqsadida qilingan harakat debgina oqlash mumkin.

46) keep back (keep bachclor's hall) – bo'ydoqlardek hayot (kun) kechirmoq.

Don't you know ... any place where we could keep bach together? (Suppl)

Bo'ydoqlardek hayot (kun) kechirish mumkin bo'lgan birorta joyni bilmaysizmi?

47) keep bad company – yomonlarga qo'shilmoq

48) keep good company – yaxshilarga qo'shilmoq

49) keep company (with smb) – kim bilandir do'stlashmoq, ko'rishib, uchrashib turmoq.

In the next few years Sarah, young as she was began to keep company with one of the black field hands Jeff McWilliams who was 16 and felt himself quite a man.

(W.Du Bois, "Mansart builds a Schol", ch.VII)

Keyingi yillarda Sara juda yosh bo'lishiga qaramasdan Shef Mak Uilyams degan qora tanli batrak yigit bilan do'stlashib qoldi, u 16 yoshda bo'lib, o'zini xuddi kattalardek tutardi.

50) keep bad (late) hours – kech yotib, kech turmoq.

Lord Caversham: Well, sir. What are you ding here? Wasting your life as usual.You should be in bed, sir. You keep too late hours.

(O.Wilde, "An Ideal Husband", act 1)

Lrd Kavershem: Xo'sh, ser.Siz bu yerda nima qilyapsiz? Har doimgidek umringizni behuda o'tkazyapsizmi?. Hozir yotishingiz kerak, ser. Siz juda kech yotyapsiz.

51) keep early (good, regular) hours – erta turib, erta yotmoq.

52) Keep body and soul together – qo'l uchida zo'rg'a kun kechirmoq.

Trench ... your fortune has been made out of a parcel of unfortunate creatures that have hardly enough t keep body and soul together.

(B.Show, "Widow's Houses", act II)

Trench ... siz bu boylikni och-nahor, qo'l uchida zo'rg'a kun kechirayotgan sho'rpehona qashshoqlarning so'nggi chaqalarini ham tortib olish evaziga to'pladingiz.

53) keep (stay, steer) clear of smb (smth) – kimdandir (nimadandir) uzoqroqda yurmoq, birovdan o'zini olib qochmoq.

Hate each other like poison, of course. Take my advice – keep clear of them.

(R.Aldington, "Rejected Guest", ch.14)

Albatta, ular bir-birlarini ko'rishga ko'zlari yo'q. Maslahatimga amal qiling – ulardan uzoqroq yuring.

54) keep (feel) fit – sog'-salomat bo'lmoq; sog'ligi joyida bo'lmoq.

"You not keeping fit. You're pale", she said.

(S.P.Snow, "Time of Hope", ch.XXVII)

"Sog'ligingiz joyida emasga o'xshaydi. Rangingiz oqargan", - dedi u.

55) keep one's flag flying – bo'sh kelmaslik; yengilmaslik; o'z bayrog'ini baland ko'tarmoq; jangovor kayfiyatda bo'lmoq.

"I've always admired your pluck, sir. Always think of you keeping the flag flyin, sir."

(T.Galsworthy, "A Stoic")

"Men har doim siznin sabr-bardoshiniza qoyil qolaman. Har qanday sharoitda ham bo'sh kelmaysiz deb hisoblayman, ser".

56) keep loves on – raqibia (dushmanga) nisbatan yumshoq, ko'ngilchan munosabatda bo'lmoq.

Look here, it is no good keeping gloves on. I'm desperate and I'll take her from you If I can .

(T. Galsworthy, "The White Monkey", part 1, ch.IX)

Quloq sol, bu masalada ko'ngilchanlik ketmaydi. Uni sendan tortib olish uchun qo'limdan kelgan hamma narsani qilaman.

Keep a good heart = keep (up) heart – ruhan tetik bo'lmoq; ko'tarinki kayfiyatda bo'lmoq.

57) keep (hide, lay up, wrap up) in a napkin – bor imkoniyatdan foydalanmaslik; qobiliyatidan foydalanmaslik.

He's lazy devil and keeps his talent in a napkin.(DEI)

U dangasa (ishyoqmas) shayton, o'z qobiliyatini yerga ko'mgan.

58) keep (hold) in awe – zir titratmoq; dahshatga solmoq.

She was kept in awe by the whole realm, for she had made everybody believe she was a great sorceress.

(M. Twain, "A Connecticut Yankee in King Arthur's Court", ch.XVII)

Butun qirollik undan zir titrardi, chunki u hammani buyuk afsunarman deb ishontirandi.

59) keep (hold) in check – o'zini tiya bilmoq, o'z his-tuy'ularini nazorat qilmoq; o'zini tuta bilmoq.

It was unusual the way he kept his feelins in check.

(T. Galsworthy, “Over the River”, ch.XXXI)

Yigitning o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olishi tahsinga loyiq edi.

60) keep (have, hold) in hand – 1.kimnidir (nimanidir) o'ziga bo'ysindirmoq, qo'l ostida tutmoq. 2.o'zini qo'lga olmoq, his – tuyg'ularini oshkor etmaslik.

He's deeply in love, with my sister and yet he has kept himself in hand.

(T. Galsworthy, “Over the River”, ch.XXVI)

U opamga oshiqu beqaror bo'lib qolgan, lekin shunga qaramasdan his- tuyg'ularini oshkor etmaydi.

61) keep (bear, have) in mind – yodida tutmoq, nazarda tutmoq, xotirida saqlamoq, esda qolmoq.

He met so many persons that he gave up trying to keep them in mind.

(U.Sinclair, “World's End”, ch.25)

Uni shu qadar ko'p odamlar bilan tanishtirishdiki, u esa hatto ularning ismlarini eslab qolishga harakat ham qilmadi.

62) keep (be) smb's good books – kimningdir ishonchini, e'tiborini qozonmoq, nazariga tushmoq.

I tell you what, Mr.Noggs, if you want to keep in the good books in that quarter, you had better not call her the old lady any more.

(Ch.Dickens, “N.Nickleboy”, ch.XXXI)

Mening sizga aytmoqchi bo'lganim shuki, Mister hoggs, agar siz o'sha xonadondagilarning e'tiborini qozonmoqchi bo'lsangiz, yaxshisi uni bundan buyon qari xonim deb atamang.

63) keep in step with smb (smth) – kim(nima)dandir ortda qolmaslik.

By this means I hoped to get orderly government working in the British Zone as quickly as possible and at the same time to keep in step with the Americans.

(The Memory of Field-Marchal Montgomery, ODCIE)

Shu usulda ish ko'rib, men iloji boricha tezroq Britaniya zonasi rahbariyati bilan ishlarni yo'lga qo'yish va bir vaqtning o'zida amerikaliklardan ortda qolmaslikka umid qilardim.

64) keep one step ahead of smb – kimdandir bir qadam oldinda bo'lmoq.

Gibbs kept one step ahead of the police for years, but they finally tracked him down sn Australia. (ODCIE)

Gips yillar davomida politsiyaning ko'zini shamg'alat qilib undan bir qadam oldinda yurdi, lekin va nihoyat bir kun kelib uni Avstraliyada qo'lga olishdi.

65) keep (remain, stay, stand) in the background – 1. o'zini namoyon qilmaslik, o'zini panaga tortmoq, orqa planda bo'lmoq; 2 yashirmoq, bekitmoq.

No can say I have kept my political views in the background, although I have had many hints from Mr.Citrine's friends that if I cared to drop it there was a place for me on the General Council.

(H.Pollitt, Selected Articles and Speeches)

Hech kim meni siyosiy qarashlarini yashiryapti deb ayta olmaydi, vaholanki janob Sitinning do'stlari ko'p marta agar men o'z dunyoqarashlarimdan voz kechsam Bosh konsullikda menga mos joy borligiga shama qilishgan.

66) keep mum – tilini tiymoq, bir so'z ham demaslik.

Of course, I thought they would appeal to me to keep mum, and then we would shake hands, and take a drink all round, and laugh itt off, and there an end.

(M.Twain, "A Connecticut Yankee in King Arthur's Court", ch.33)

Albatta, ular mendan tilimni tiyib yurishimni so'rashadi va keyin biz qo'l siqishamiz, qitta-qitta qilamiz, bir kulishib olamiz va shu bilan hammasi tugaydi, deb o'ylagandim.

67) keep one's balance – muvozanatini saqlamoq, o'zini xotiqraj tutmoq, o'zini tutmoq.

Don't get excited: keep your balance.

Hayajonlanmang: o'zingizni xotirjam tuting.

68) keep (save, spare) one's breath to cool one's (own) porridge – fikrini ochiq aytishdan o'zini tiymoq, tilini tiymoq.

"If you are threatening me on his behalf", he said "keep your breath.I'm ready for the worst he can throw at me".

(J.Wein, "A Wintet in the Hills", part IV)

"Agar siz uning nomidan menga po'pisa qilayotgan bo'lsangiz, tilingizni tiying", --dedi u – Undan har qanday pastkashlikni kutish mumkin va men bunga tayyorman".

69) keep one's own council – nimanidir yashirmoq, sir tutmoq, o'z fikrini bayon etmaslik, sukut saqlamoq.

Powell didn't know why it was he had resolved to keep his own council as to his colloquy with Mr.Smith.

(J.Conrad, "Chance", part II, ch.III)

Pavel u nima sababdan mister Cmit bilan qilgan suhbatini sir saqlashga qaror qilganligi borasida o'zi ham bir nima deya olmadi.

70) keep one's countance – o'zini tiyishdan tiymoq, jiddiylikni saqlab qolmoq, sir boy bermaslik. ... there was no keeping one's countance when Rivares was in the room; it was one perpetual fire of absurdities. Rivares xonada ekanligida o'zini kulgidan tiyishning hech ham iloji yo'q edi. (E.L.Voynich, "The Gadfly", part II, ch.I)

71) keep (know) one's distance – o'z o'rnini bilmoq; masofa saqlamoq, kimdandir uzoqroqda yurmoq.

I don't wish to have anything to do with you in future, so will you please keep your distance.

Kelajakda sizlar bilan hamkorlik qilishni umuman xohlamayman, shuning uchun marhamat qilib o'z o'rningizni biling (mendan uzoqroqda yuring.

72) keep smb at a distance – kimdandir o'zini olib qochmoq, boshqalardan uzoqroqda yurmoq; o'zini chetga tortmoq, bironi o'ziga yaqinlashtirmaslik.

It is difficult to get to know her because she always kept everyone at adistance (HAI)

Uning kim ekanligini bilish qiyin edi, chunki u har doim o'zini odamlardan chetga tortadi.

73) keep oneself in the foreground – oldingi qatorda bo'lmoq, o'zini ko'z-ko'z qilmoq.

He has a lot of ability. But he is so modest he won't keep himself in the foreground.

U kuchli qobiliyat sohibi. Lekin shu qadar kamtar-ki, o'zini hech qachon ko'z-ko'z qilmaydi.

74) keep (oneself) out of picture – nimadandir o'zini uzoqroqda tutmoq, o'zini chetga tortib turmoq.

He said to tell me that circumstance which he couldn't explain at the present time necessitated that he keep out of the picture for a while ...

(E.S.Gardner, "The Case of the Amorous Aunt", ch.13)

U mendan ayni paytda u tushuntirib berishga qodir bo'lmagan vaziyat taqozasi bilan biroz vaqt o'zini panaga tortishga majbur ekanligini yetkazib qo'yishimni so'radi.

75) keep smb at the picture – kimnidir vaziyatdan xabardor qilib turmoq.

But I'm grateful to you for keeping me in the picture, my dear Eliot, many, many thanks.

(C.P.Snow, "The New Man", part II, ch.14)

Vaziyatdan boxabar qilib turganingiz uchun sizdan bag'oyat minnatdorman, azizim Eliot, ko'pdan ko'p tashakkur.

76) keep (hold) one's end up – 1. bo'sh kelmaslik, teng kela olmoq. 2.obro'sini saqlamoq. 3.va'dasining ustidan chiqmoq.

When it comes to sarcasming, I reckon, I know how to keep my end up.

(M.Twain, "A Connecticut Yankee in King Arthur's Court", ch.24)

Agar ish kinoya qilishga borib taqalar ekan, ishontirib ayta olamanki, bu borada menga teng keladigan odam yo'q.

77) keep one's feet – 1. oyog'ida mahkam turmoq, yiqilib ketmaslik. 2.chidamoq, saqlab qolmoq.

It was difficult to keep one's feet on the icy slopes of the hill. (DEI)

Tog'ning muz qoplagan qiyaliklarida yiqilib ketmasdan oyoqda tik turish qiyin edi.

78) keep (have) one's fingers crossed – ko'z tegmasin deb irim qilmoq.

Neat job so far. But keep the fingers crossed.

(J.B.Priestly, "Festival", part III, ch.2)

Hozircha ishlarimiz joyida. Ishqilib ko'z tegmasinda.

79) keep (have) one's fingers on the pulse – nimanidir e'tibor bilan kuzatmoq, hamma narsadan xabardor bo'lmoq.

I keep my finger on the pulse of this company much more than you think.

(J.Jones, "From Here to Eternity", ch. 9)

Men bu kompaniya ishlaridan juda yaxshi xabardorman, hatto siz o'ylaganingizdan ham yaxshiroq.

80) keep one's hands off smb (smth) – qo'lga erk bermaslik, kimgadir qo'l ko'tarmaslik.

"It was miracle", Danny said. "How the boys managed to keep their hands off the troops".

(K.S.Prichard, "The Roaring Nineties", ch.51)

"Bu mo'jiza edi," - dedi Denni - "Yigitlar hatto bosqinchi soldatlarga qo'l ham tekkizishmadi".

81) keep smth in hand – nimanidir o'z ixtiyorida saqlab qolmoq, qo'l ostida saqlamoq.

You may keep the offer in hand till the 20 th.

20-gacha bu taklifga qanday qaror qabul qilish sizning ixtiyoringizda.

82) keep one's head – aql bilan ish tutmoq, es-hushini yo'qotmaslik.

I repeat there is absolutely no cause for alarm so long as we keep our head.

(N.Lewis, "The Volcanoes above us", ch.XXIV)

Yana takrorlayman, qo'rqish uchun mutlaqo asos yo'q, faqatgina aql bilan ish tutishimiz kerak.

83) keep (hold) one's head above water – hayot uchun kurashmoq; qiyinchiliklarni yengib o'tmoq, qiyinchiliklarni yengib o'tmoq; qarzga botmaslik; bankrot bo'lishdan saqlanmoq.

He had been grappling with them ever since he married and he got family : had been hobbing about on tempestuous financial seas, venting now a little profanity now a little philosophy, but keeping his head above water.

(R.Greenwood, "Mr.Bunting" ch.1)

U uylanib oila qurganidan buyon bularning bari bilan kurashib kelyapti: u kuchli moliyaviy omadsizliklar dengizida suzdi, ba'zida kimlarnidir so'kib alamidan chiqdi, ba'zida falsafiy fikrlar bilan o'zini ovutdi, lekin nima bo'lganda ham qiyinchiliklarni mardona yengib o'tdi.

84) keep one's hold over smb – kimningdir ustidan hukmronlikni saqlab qolmoq, kimgadir o'z ta'sirini o'tkazmoq.

We don't want a lot of rich old crooks ... working out how to keep their hold over us when the war is over.

(J.B.Priestly, "Daylight on Saturday", ch.35)

Biz bir to'lda muttaham boylarning urushdan keyin ham ustimizdan o'z hukmronligini saqlab qolishlari uchun makr – hiylalarini davom ettirishini xohlamaymiz.

85) keep (take) one's mind off smb (smth) – kim(nima)nidir unutmoq; kallasidan (miyasidan) chiqarib tashlamoq.

He must forever keep out of his mind the contemptuous words of his brother's letter.

(M.Dodd, "Sowing the Wind, ch.XXIX)

U akasining maktubida bitilgan haqoratli so'zlarni bir umrga miyasidan chiqarib tashlashi lozim.

86) keep one's mind on smth – diqqatini jamlamoq; har doim bir narsa to'g'risida o'ylamoq.

He couldn't keep his mind on the job. The events of the past two days kept intruding on his concentration.

(F.Knebel, "Seven Days in May", Monday)

U qilayotgan ishiga diqqatini jamlay olmadi. Keyingi ikki kun ichida sodir bo'lgan voqealar miyasiga bostirib kelaverdi (butun fikr-zikrini band etgandi).

87) keep one's mouth shut – tilini tiymoq, tiliga erk bermaslik.

I thought why not shut my mouth and accept the promotion (M.Wilson, "Live with Lightning", book II, ch.IV)

Tilimga erk bermasdan mansabni qabul qilsammikan, deb o'ylab qoldim.

88) keep one's name on the books – biror tashkilotning a'zosi bo'lib qolmoq.

I should like my name kept on the books for the present (DEI)

Men hozircha klubning a'zosi bo'lib qolishni xohlardim.

89) keep smb's name off the books – kimnidir biror tashkilotga qabul qilmaslik.

90) keep one's nose clean – ehtiyot bo'lmoq, gunoh ishlardan uzoqda yurmoq.

Keep your nose clean - Drake warned. Mason laughed. When you are working at high speed you have to take a chance once in a while.

(E.S.Gardner, "The Case of the Restless Redhead", ch.9)

"Ehtiyot bo'l," -ogohlantirdi Dreyk. Meyson kulib qo'ydi. -"Bunday tezlikda ishlaganda tavakkal qilishga to'g'ri keladi".

91) keep one's nose out of smth – birornarsaga ishi bo'lmaslik, aralashmaslik, birovlar ishiga burnini suqmaslik.

"You keep your nose out of our business", Ruth said bravely.

(M.Dickens, "The Heart of London", part III)

-Bizning ishimizga burningizni suqmang, dedi Rut qat'iyat bilan.

92) keep (hold, put) one's (smd's) nose to the grindstone – o'zini yoki birovni holdan toyguncha ishlashga majbur qilmoq.

Mr.Barker ... kept all our noses to the grindstone, being – as he ones remarked – paid for doing that very thing.

(J.Conred, “The Nigger of the Narcissus”, ch.II)

Mister Beyker hammamizni holdan toygunimizcha ishlashga majbur qilardi, chunki qachondir o’zi ta’kidlaganidek, unga aynan mana shu xizmati uchun haq to’lashardi.

93) keep (know) one’s place – o’z o’rnini bilmoq.

Elizabeth ... gave the impression of “keeping her place” far too well ever to say anything like that.

(M.Dickens, “The Happy Prisoner”, ch.5)

Elizabet ... o’z o’rnini juda yaxshi biladigan odam sifatida ta’surot qoldiradi, u bunday deyishi mumkin emas.

94) keep one’s pocket well buttoned – qurumsoq bo’lmoq.

You won’t get anything out of him, he keeps his pocket well buttoned.

Undan hech narsa undira olmaysis, u qurumsoq hamyonini ko’z qorachig’idek asraydi.

95) keep one’s powder dry – har qanday favquloddagi holatga tayyor turmoq; jangovor holatda bo’lmoq.

... Arthur Brown, whatever his hopes of a compromise , believed in keeping his powder dry.

(C.P.snow, “The Light and the Dark”, ch.29)

... o’zaro kelishuv (murosa)ga umid qilsada, Artur Braun har qanday favqulodda holatga tayyor turish lozim, deb hisoblardi.

96) keep one’s sight low – ko’p narsani talab qilmaslik, me’yorni bilmoq

There are times in diplomacy when it is wise to keep one’s sights low. (ALD)

Shunday holatlar ham bo’ladiki, diplomatlar ko’p narsani talab qilaolmaydilar.

97) keep one’s (smb’s) spirits – o’zi(birov)ning kayfiyatini ko’tarmoq; ko’tarinki kayfiyatda bo’lmoq.

She had tried to be brisk and cherry in order to keep up her spirits and his.

(K.S.Prichard, “The Roaring Nineties”, ch.14)

Qiz tetik va quvnoq bo’lishga harakat qilardi, chunki Marrison ikkalasi ko’tarinki kayfiyatda bo’lishlari talab qilinardi.

98) keep (one’s) state – g’ururini baland tutmoq, obro’yini saqlamoq.

But keep your own state... they will think the more of ye.

(W.Scott, “The bBride of Lammoermoor”, ch.XVIII)

G’ururingizni saqlang va shunda ular siz haqingizda yuqori fikrda bo’ladilar.

99)keep (get, have) one’s tail up – tushkunlikka tushmaslik, ko’tarinki kayfiyatda bo’lmoq.

Having won the President's Cup, the team had their tails up for the final of the league championship.(ODCIE)

President kubogini qo'lga kiritgan komanda ko'tarinki kayfiyatda chempionlar ligasi final uchrashuviga qatnashadi.

100) keep(hold, control) one's temper – g'azabini bosmoq (jilovlamoq, tiymoq)

what a damned fool I was. Why didn't I keep my temper.

(W.S.Maughm, "Theatre", ch.XV)

Qanchalar esipast ahmoq bo'lgan ekanman-a. Nima uchun o'sha payt g'azabimni tiymadim.

101) keep (hold) one's way – 1.yo'lida davom etmoq, ortda qolmaslik; 2.o'z yo'lida davom etmoq; o'zini tutib olmoq.

The ... reeds of the jungle were moving like the ripple of the ocean, when distorted by the cowise of a shark holding it's way near the surface.

(W.Scott, "The Surgeon's Daughter", ch.XIII)

Changalzordagi qamishlar xuddi okean sathidagi to'lqinlar kabi sekin harakatlanardi, odatda okeanning unchalik chuqur bo'lmagan qismida suzishda davom etayotgan (suzib ketayotgan) akula bu to'lqinga sabab bo'ladi.

102) keep one's wicked up – o'z manfaatlarini himoya qilmoq, bo'sh kelmaslik.

You will meetwith all kinds of difficults, but keep your wicket up and you'll come throughall right. (DEI)

Siz turli qiyinchiliklarga duch kelasiz , lekin bo'sh kelmang va siz hammasini yengib o'tasiz.

103) keep (have, have got) one's wits about one – 1. yaxshi anglab yetmoq; aql-hushi joyida bo'lmoq; 2.o'zini yo'qotmaslik; ehtiyotkor bo'lmoq.

Miss Figgis. You all think I'm stupid and slow, but I still keep my wits about me.

(P.H.Johnson, "Corinth House", act III)

Siz hammangiz meni esipast va sustkash deb o'ylaysiz, lekin men gap nimadaligini juda yaxshi anglab turibman.

104) keep one's word – o'z so'zida turmoq, va'dasi ustidan chiqmoq.

Rosemond Oliver kept her word in coming to visit me.

(Ch.Bronte, "Jane Eyre", ch.XXXII)

Rozamunda Oliver o'z so'zida turgan holda, tez-tez mendan xabarlashib turdi.

105) keep (be) on the alert - hushyor turmoq, jangovor holda, shay turmoq.

... she always kept on the alert for some new calamity.

(Th.Dreiser, "Jennie Gerhardt", chXXIII)

... u har doim yangi bir kulfatni yuragi sezgandek yushyor turardi.

106) keep (get) on the right (good) of smb – kimnidir o'ziga g'dirmoq; ko'ngliga yo'l topmoq.

Whenever she wants anything, Janice knows how to keep on her father's good side .(HAI)

Qachonki biror narsa kerak bo'lsa, Jenis otasining ko'nngliga qanday yo'l topishni bilardi.

107) keep on the rails – odob-axloq normalariga amal qilmoq; qonunni buzmaslik; tartibli hayot kechirmoq.

We have all kept on the rails. There have been no scandals in the family: none of us have appeared in police courts or gone to prison. (ODCIE)

Biz har doim jamiyatdagi odob-axloq qoidalariga amal qilganmiz. Oilamizda janjalli vaziyat hech qachon bo'lmagan: politsiya tomonidan hech kim ayblanmagan yoki qamoqqa ham qamalmagan.

108) keep on the razor edge of smth – chegaradan chiqmaslik; o'ta qaltis vaziyatda qolmoq.

109) keep (be) on the right side of the law – qonunlarga to'liq (so'zsiz) amal qilmoq.

“O.K. by me” Lock said to himself, “so long as he keeps on the right side of the law and doesn't let me down”.

(D.Cusack, “Picnic Races”, ch.III)

“Bu menga ma'qul,” –o'zicha o'ylanib qoldi Lok “qaysiki Oliver qonunlarga so'zsiz amal qiladi va meni uyaltirib qo'ymaydi”.

110) keep out of smb's tracks – kimdandir uzoqroqda yurmoq; ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilmoq.

He would better keep out of my tracks (DAE)

Yaxshisi u ko'zimdan (mendan) uzoqroq (nariroq) yursin.

111) keep out of the rain – suvdan quruq chiqmoq; noxush vaziyatdan oson qutulmoq.

-Why isn't Smith here? After all, he was the ring leader of the whole affair, and I don't see why we should get punished and he get off free.

-He sent word that he was ill. Trust him to get out of the rain.

-nima uchun Smit bu yerda emas? Axir hamma baloni boshlagan u-ku. Tushuna olmayapman, nima uchun buning jabrini biz tortishimiz keragu, u osongina qutilib ketar ekan.

-U kasal ekanligini aytib qo'yishni so'rabdi. Ishonchingiz komil bo'lsin, bu odam har qanday holatda ham suvdan quruq chiqib ketadi.

112) keep out of the way – odamlardan o'zini olib qochmoq; o'zini chetga tortmoq.

He had speculated too much and was keeping out of the way.

(Ch.Dickens, “Martin Chuzzlewit”, ch.XXXVIII)

U birjada bor budidan ayrilib xonavayron bo'ldi, shu sababli endi odamlardan o'zini olib qochyapti.

113) keep pace with smb (mth) – kim (nima)dandir ortda qolmaslik; baravar qadam tashlamoq.

But language must grow in order to keep pace with the progress, material and spiritual of the people who use it.

(G.H.McKnight, "English words and their Background", ch.XII)

Lekin til bu tilda gapiradigan xalqning moddiy va ma'naviy yuksalishidan ortda qolmaslik uchun rivojlanishi kerak.

114) keep (hold) smb at arm's length – kimnidir yoniga yaqinlashtirmaslik (yo'latmaslik); o'zini olib qochmoq.

Avice was really fond of Roger and kept Christopher at arm's length after the murder.

(C.P.Snow, "Death under Sail", ch.19)

Evisning chindan ham Rojerdan ko'ngli bor edi va uning fojiali o'limidan so'ng Kristoforni yaqiniga yo'latmadi.

115) keep (bear) smb company – kimgadir hamrohlik qilmoq.

Mr.Bailly was good enough to continue to keep him company and to entertain him as they went, with easy conversation on various sporting topics...

(Ch.Dickens, "Martin Chuzzlewit", ch.XXVI)

Mister Beyli shunchalik oliyjanob ediki, unga safari davomida hamrohlik qildi va zerikib qolmasligi uchun sportga oid turli mavzularda suhbat olib bordi.

116) keep smb in blinkers – kimgadir to'sqinlik qilmoq; kimningdir ishiga xalaqit bermoq.

He just bided his time and then let a cunning word or two to show it was no use trying to keep him in blinkers.

(J.Lindsay, "The Revolt of the Sons", ch IV)

Qariya biroz sukut saqladi, so'ng o'ziga xos ayyorlik bilan uning ishiga xalaqit berishning yo'qligini bir ikki so'z bilan ifoda etdi.

117) keep (wrap) smb in cotton-wool – kimnidir avaylab-asramoq; haddan tashqari ehtiyotlamoq.

The boy has been coddled and kept in cotton-wool so long that he is even afraid of walking along.

Bolani shunchalik silab siypalab, asrashgan edilarki, u hattoki yolg'iz sayr qilishga ham qo'rqardi.

118) keep (put) smb in countance – kimnidir (nimanidir) qo'llab quvvatlamoq.

I don't think that this interview which you seem to dread so much, will be anything like as bad as you imagine. Anyway I shall be there to keep you in countance, so don't worry. (SPI)

Men siz shunchalik qo'rqayotgan intervyu, siz tasavvur qilganingizdek yomon bo'ladi deb o'ylamayman. Nima bo'lganda ham men sizni qo'llab quvvatlash uchun o'sha yerda bo'laman, demak xavotirga o'rin yo'q.

119) keep smb in his (proper) place- kimningdir o'rnini ko'rsatib qo'ymoq; kimnidir itoatda saqlamoq.

But the monopolists do want the labor, progressive and liberal forces kept in their place .

(G.Green, "The Enemy forgotten", ch.VII)

Ammo monopolistlar kasaba uyushmalari progressive va liberal kuchlarning o'z o'rinlarini bilib qo'yishlarini juda xohlagan bo'lishardi.

120) keep smb (smth) in line – kim(nima)nadir nazorat ostida saqlamoq; kim(nima)nidir o'ziga bo'ysindirmoq; jilovini qo'lga olmoq.

He could never seem to keep his temper in line .

U hech ham his-tuyg'ularini jilovlay oladigan odamga o'xshamasdi.

121) keep to (take) one's own line – o'z yo'lidan bormoq; mustaqil harakat qilmoq.

122) keep (hold) smb in play – 1.kimnidir ishga ko'mib tashlamoq; 2.ko'p tashvish keltirmoq; 3.raqibini holdan toydirmoq.

... I with two more to help me, will hold the foe in play (will keep the foe in play)

(Th.Macaulay, "Lays of Ancient Rome")

... Men yonimda ikkita yordamchim bo'lsa dushmanni holdan toydiramiz.

123) keep (have) smb in stitches – kimnidir yotib qolgunicha kuldirmoq; ichagi uzilgudek kuldirmoq.

The comedian kept us in stitches.(ECI)

Komik aktyor kuldiraverib ichaklaringizni uzdi.

124) keep smb in the air – kimnidir mavhum holatda saqlamoq; aniq javob bermaslik.

125) keep (leave) smb in the dark – kimnidir mavhum holatda saqlamoq; nimanidir yashirmoq.

Often she evaded my question, and more than once she concealed a fact that she clearly knew. There were still places where I was left in the dark.

(C.P.Snow, "Strangers and Brothers", ch.40)

Qiz ko'pincha savollarimga javob berishidan o'zini olib qochardi va bir necha marta o'ziga ma'lum vaqtlarini mendan yashirdi. Ko'p narsalar men uchun hali ham mavhum edi.

126) Keep smb in the picture – kimnidir vaziyatdan xabardor qilib turmoq.

127) keep (have) smb on a string - kimnidir butunlay o'ziga bo'ysindirmoq; kimnidir o'z yo'rig'iga yurgizmoq; nog'orasiga o'ynatmoq; inon-ixtiyori birovning qo'lida bo'lmoq.

He's a quite fellow, Joe. Anything Rose did was right in his eyes. She had him on a string.

Jo - kamgap, bosiq yigit. Roza nimaiki qilsa u to'g'ri deb hisoblaydi. Axir uning butun inon-ixtiyori Rozaning qo'lida.

128) keep smb on tender hooks – aniq gap yoki kerakli ma'lumotni aytmasdan birovning toqatini toq qilmoq; mavhumlik, noaniqlik bilan kimgadir qattiq azob bermoq.

Stephanie said nothing at all and kept us on tender hooks for half hour.

(P.H.Johnson, "An Error of Judgement", ch.12)

Stefani churq etmadi, yarim soat davomida aniq bir gap aytmasdan toqatimizni toq qildi.

129) keep smb on the chain – kimnidir zanjirband qilmoq; kimningdir erkini cheklab qo'ymoq.

She keeps her servants on the chain; they are not allowed to go into the town without her permission. (DEI)

U xizmatkorlarining erkini butunlay cheklab qo'ygan; ular hatto uning ruxsatisiz shaharga ham borishlari mumkin emas.

130) keep smb on the rack – kimnidir qiynalishga, azob chekishga majbur qilmoq.

Paul: “Mavis, old thing – cards on the table, please. Don't keep me on the rack any longer – if there is anything to tell me”.

(N.Coward, “Home Chat”)

Pol: “Meybis, qariya – iltimos, ko'nglingizdagini to'kib soling. Meni azob chekiishga majbur qilmang. Agar menga aytadigan gapingiz bo'lsa, hoziroq ayting”.

131) keep smb on the run – kimgadir tinchlik, halovat bermaslik, boshi tashvishdan chiqmaslik.

With three young children to take care of, Helen is kept on the run every minute of the day.

(HAI)

Qo'lidagi uchta yoshbolasining tashvishi bilan Helen uzzu - kun boshi tashvishdan chiqmasdi.

132) keep the run of smth – vaziyatdan xabardor bo'lmoq; nimanidir kuzatmoq, nazorat qilmoq.

133) keep smb on the trot – kimgadir tinchlik bermaslik; injiqlik qilib kimnidir jonidan to'ydirmoq.

One of those who eat and growl, and keep the waiter on the trot.

(W.Irving, “Bracebridge Hall”, part 1, ch.XIV)

U shunday odamlar toifasiga kirardiki, yegan taomlarining hammasidan ayb topib, ofissiantlarni jonidan to'ydirardi.

134) keep smb's memory green – kimningdir xotirasini bir umr yodda saqlamoq.

135) keep smb's name off the books – kimnidir biror tashkilotga a'zo qilmaslik.

136) keep smth on the boil – nimaningdir susayishiga yo'l qo'ymaslik; nimanidir keskinlashtirmoq.

There were still enough coloured pupils at Green Lane, however to keep the school's personal interest in the riots on the boil.

(m.Dickens, “The Heart of London”, part III)

Grin Leyn maktabida hali ham ko'plab negr bolalari o'qishardi, shu sababli irqchilik tufayli sodir bo'ladigan keskinliklar bu maktabga nisbatan ommaning qiziqishini kuchaytirardi.

137) keep (have) smth up one's sleeve – nimanidir zahiraga asrab qo'ymoq; nimanidir kerakli vaqtgacha yashirib qo'ydi.

“Coffee,” said Mrs.Marle “I think we could do with it. I keep sometning up my sleeve for lunch”.

(P.H.Johnson, “Night and Silence” ch.33)

“-Kofe ” –dedi missis Marl, - “hammamizga ma’qul.Lekin menda nonushta uchun asrab qo’yilgan yana nimadir bor”

138) keep smth within the bounds – chegaradan chiqmaslik, haddidan oshmaslik, o’zini tiya olmoq.

She could never keep temper within bounds.

U hech qachon me’yor darajasida o’zini tiya olmasdi.

139) keep the ball rolling – nimanidir davom ettirmoq; to’xtab qolishga yo’l qo’ymaslik; suhbat (muloqat)ini to’xtab qolgan joyidan davom ettirmoq.

... he inquired whether we had known Powell ... Then there was a pause... To keep the ball rolling I asked Marlow this Powel was remarkable in any way.

(J.Conrad, “Chance”, part 1, ch.I)

... u bizdan Pauellni bilasizmi deb so’radi Keyin oraga sukunat cho’kdi... Suhbatni davom ettirish uchun o’sha Pauell deganlari qaysi jihatlari bilan ajralib turishini Marloudan so’radim.

140) keep the bones green – sog’lig’I a’lo darajada bo’lmoq; mustahkam sog’liqqa ega bo’lmoq.

Exercise keeps the bones green.

Jismoniy mashqlar sog’liqni mustahkam qiladi.

141) keep (get, have) the bulge on smb – kimdandir biror darajada ustun bo’lmoq; kimdandir qo’li baland kelmoq.

Well, you have rather kept the bulge on me. Or may be we’ve both got the bulge, somehow.

(M.Twain, “Innocents at home”, ch.II)

Ha, siz mendan yaxshigina darajada unstunlikka ega bo’ldingiz. Ehtimol, ikkovimizning ham qo’limiz baland kelgandir.

142) keep the crown of the causeway – yo’lning yoki ko’chaning o’rtasidan yurmoq.

I keep the crown of the causeway when I go to the borough.

(W.Scott,”The Antiquary”, ch.XXI)

Men shaharga ketayotganimda har doim yo’lning chetidan emas, o’rtasidan yuraman.

143) keep (leave) the door open – nimanidir kun tartibidan olib tashlamaslik; nimanidir bajarishga to’liq imkoniyat yaratib bermoq.

The door has been kept open for a later conference.

(“New world Rewiew”, June, 1980)

Yana bir konferensiya o’tkazish masalasi kun tartibidan olinmagan edi.

144) keep (hold) the field – o’z mavqeini saqlab qolmoq; hukmronlik qilmoq; ustunlik qilmoq.

We will keep the field against all competition. (CDEI)

Biz har qanday raqobatda o'z mavqeimizni saqlab qolamiz.

145) keep the home fires burning – oilani saqlab qolmoq.

A : ... if there is one thing I've been trying to do it's to be honest with you.

B: No, you have been trying to keep the home fires burning and see the world at the same time.

(R.Greenwood, "Mr.Bunting at War", ch.1)

A: ... agar senga bir narsani aytadigan bo'lsam, men senga nisbatan har doim samimiy bo'lishga harakat qilyapman.

B: Yo'q, aynan shunday emas, sen bir tomondan oilamizni saqlab qolishga harakat qilding va ayni paytda pana pasqamda o'z maishatingni ham unutmading.

146) keep the lid on – sir saqlamoq; yashirmoq.

What's Scott holding out on me? Casey thought.May be he's got orders from the President to keep the lid on .

(F.Knebel, "Seven days in May", Sunday)

Skot mendan nimanidir yashiryapti, deb o'yladi Keysi. – yoki prezidentning buyrug'I bilan qat'iy sir saqlayapti.

147) keep the log rolling – ish jarayonidagi yuqori temp(tezlik)ni saqlab qolmoq; faollik bilan qo'llab quvvatlashda davom etmoq.

148) keep the memory of smb green - kimningdir xotirasini bir umr yodda saqlamoq.

149) keep (hold) the pass – o'z manfaatini himoya qilmoq.

150) keep the pot boiling – bir amallab, qo'l uchida kun kechirmoq; zo'rg'a qozoni qaynamoq.

Meantime, there's a few shillings for you, Grace, just to keep the pot boiling till custom comes.

(Ch.Bronte, "Shirley", ch.VIII)

Hozircha, mana senga bir necha shilling Greys, toki xaridorlar paydo bo'lguniga qadar bir amallab kun kechirishing uchun.

151) keep the record straight – haqiqatni saqlab qolmoq; haqiqatni ochish maqsadida harakat qilmoq; haqiqatni himya qilmoq.

To keep the record straight I would like to mention a few facts. (ALD)

Haqiqatni himya qilish maqsadida ba'zi faktlarni aytib o'tmoqchiman.

152) keep to the record - masalaning mohiyatidan uzoqlashmaslik; aniq maqsadni bayon etmoq.

I said I had always longed for it. "Never mind what you have always longed for, Mr.Pip", he retored. "Keep to the record".

Men har doim shu narsaga intilganimni aytdim.

-nimaga intilganingizning ahamiyati yo'q, mister Pin, javob qildi u, – masalaning mohiyatidan uzoqlashmang.

153) keep (hold) the ring – mo'joroga aralashmasdan uni boshqarib turmoq.

154) keep the run of smth – hamma narsadan xabardor (ogoh) bo'lmoq; nimanidir nazorat qilmoq.

I wish to geeming she had stuck to one or another -- can't keep the run of them.

(M.Twain, "Tom Sawyer", ch.1)

Jin ursin.U hali bir narsaga yopishadi, hali boshqasiga. Nima qilmoqchi ekanligini hech ham nazorat qila olmayapman.

155) keep the wolf from the door – ochlikning oldini olmoq; qashshoqlikka qarshi kurashmoq; ochlikdan qutqarmoq.

He knew that no Forsyte would be capable of watching his own daughter in actual want ... sooner or later he would have had to make them an allowance to keep the wolf from the door.

(J.Golsworthy, On Forsyte, "Change", ch.XX)

U bilardiki, Forsaytlarning hech qaysi biri qizining muhtojlikda kun kechirishga chiday olmasdi, Ertami, kechmi u qizini qashshoqlikdan qutqarish uchun yordamga keladi.

156) keep to (take) one's own line – mustaqil harakat qilmoq, o'z yo'lidan ketmoq.

157) keep to the point – masalaning mohiyatini yoritmoq; mavzudan uzoqlashmaslik.

Once more, uncle, have the kindness to keep to the point.

(Ch.Bronte, "Shirley", ch.XXXI)

Amaki, sizdan yana bir bor o'tinib so'rayman, mavzudan uzoqlashmang.

158) keep up (save) appearances – odob-axloq qoidalariga amal qilmoq; o'zini go'yo hech narsa sezmagandek, hech narsani bilmagandek tutmoq.

At home where you were so little known, it was still possible to keep up appearances: that would be quite vain in this province.

(P.L.Stevenson, "The Master of Ballantrae", ch.XI)

Uyda, ya'ni siz haqingizda deyarli hech narsa bilishmaydigan joyda, o'zingizni hech narsa bilmaydigandek, hamma narsa joyidadek qilib ko'rsatish mumkin edi, lekin bu yerda buning mutlaqo foydasi yo'q edi.

159) keep up to date – hayotdan ortda qolmaslik; eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lmoq; talab darajasida bo'lmoq.

Lubin ... I have not been able to keep my academic reading up to date .

(B.Show, "Back to Methuselah", part II)

... zamonaviy ilmiy adabiyotlardan xabardorligim talab darajasida emas.

160) keep up with the Joneses – boshqalardan yomonroq yashamaslikka harakat qilmoq; boshqalardan yomon yashamaslik uchun qattiq tirishmoq.

161) keep watch (and ward) – 1.navbatchilik qilmoq; 2.qo'riqlamoq.

Mrs. Pipchin had kept watch and ward over little Povel and his sister for nearly twelve months.

(Ch.Dickens, "Dombey and Son", ch.. XI)

Misis Pupchin bir yilga yaqin hech kimga Pol va uning opasini qo'riqladi va enagalik qildi.

162) keep (have, hold) well in hand (smb, smth) – kim(nima)nidir o'z qo'li ostida saqlamoq;
o'ziga bo'ysindirmoq; nazorat ostida ushlab turmoq.

Stello Cavendish she calls herself, but she is Mrs.Joe Brundit ... Keeps Joe well in hand.

(J.B.Priestley, "The Good Companions", ch.1)

U o'zini Stella Kavendish deb ataydi, lekin u missis Jo Brandit ...U Joni butunlay o'ziga
buysindirib olgan.

Xulosa.

Ingliz tilini o'qitishda so'zlar, so'z birikmalarini o'z ichiga oluvchi frazeologik birikmalari bilan taqqoslangandagi xususiyatdan kelib chiqqan qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. Ingliz tili frazeologik birikmalarini o'zbek tili strukturasi bilan farq qilishi va ularning genetik nuqtai nazardan turli xil oilalarga qarashli ekanligidir. Bizga ma'lumki, tillar turli oilaga mansub bo'lganda, ularning grammatik strukturasi tizimi bir-biridan farqlanadi. Bu holatni o'zbek tilida qo'shimchalarning ko'pligi, gapning ot bilan boshlanib fe'l bilan tugashi, predlog, artikl, rod kategoriyalarining yo'qligi bilan ta'riflasak, ingliz tilida esa aksincha, artikl, predloglar mavjud bo'lib, qo'shimchalar rivojlanmagan.

Bundan tashqari, ingliz tili frazeologik birikmalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri – bu ularning shakli va ma'nosining o'zaro farqlanishidir. Mantiqiy fikr yuritganda, ba'zi o'xshashlik, assotsiativ holatlarni aniqlash mumkin, ammo birinchi marotaba eshitganda yoki duch kelganda, til o'rganuvchilar shaklning o'zinigina qabul qilib, ma'nosini to'liq angalay olmaslik holatlari uchrab turadi. Masalan, "hot under the collar" iborasini olib ko'radigan bo'lsak, to'g'ridan to'g'ri tarjimai "yoqa ostidagi issiqlik" ni beradi. Ma'nosidan kelib chiqib berilgan o'zbek tilidagi ekvivalenti esa "tepa sochi tikka bo'lmoq". Ko'rganimizdek, shakl va ma'noning turliligi iboralarning o'zlashtirilishidagi navbatdagi qiyinchilik hisoblanadi.

Hoshimov va Yoqubovlar "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kitoblarida, so'zlarni o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarni avvalohar bir so'zning o'zida, ya'ni shakli, semantikasi qo'llanishi bo'yicha hamda ingliz va ona tillar aloqasidan kelib chiqishini ta'kidlab o'tganlar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ingliz tili frazeologik birikmalarini o'qitishdagi qiyinchiliklarni o'rganib chiqish maqsadida, ularni to'rt guruh bo'yicha tasniflab chiqdik.

1) Birinchi guruh o'zida internatsional iboralar, til o'rganuvchilar o'zlashtirishlarida qiyinchilik va interferensiyalarni keltirib chiqarmaydigan frazeologik birliklar kiradi. Ular til o'rganuvchilar uchun tanish yoki o'z ona tillarida uchraydi. Masalan, Achilles heel, flat broke, right now, as for me, hose-wife.

2) Ikkinchi guruhni xarakterlovchi belgi – bu ularning shakl va semantikasiga ko'ra faqat u yoki bu tilga tegishli bo'lishi. Masalan, to leave school – maktabni bitirmoq, beat the band – jon-jahdi bilan ishga kirishmoq. Bu yerda iboralarning shakl ko'rinishi nazarda tutilib, ingliz tili frazeologik birliklari fe'l bilan boshlangan. O'zbek tilida esa ular ot bilan boshlangan bo'lib, fe'l bilan tugallangan: big fish – obro'li, katta lavozimdagi shaxs. Bu ikki iboralarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda semantic ma'no nazarda tutilib, faqat ingliz tilida uchrashi bilan xarakterlanadi. Big fish iborasi o'zbek tilida yuqori lavozimdagi kishilarga nisbatan qo'llaniladi.

3)Uchinchi guruh iboralari har ikki tilda uchraydi. Ular ba'zi bir qirralarda o'xshash va ba'zi bir qirralarda farq qiladi. Masalan, Cry over spilled milk – so'nggi pushaymon o'zingga dushman, give a ring – sim qoqmoq.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ular asosan shakl jihatidan farq qilinib, ma'no jihatidan o'xshash. Cry over spilled milk iborasining to'g'ridan to'g'ri tarjimasi “toshib ketgan sut ustida yig'lamoq” ma'nosini beradi. Bu ma'no o'zbek tilidagi “so'nggi pushaymon o'zingga dushman” iborasiga to'g'ri keladi. Ammo, shaklan tuzilishi o'zaro farq qiladi. Shu jihatdan ularni qo'llashda til o'rganuvchilar tomonidan xatoliklarga yo'l qo'yish holatlari uchray turadi va bu holat turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

4) To'rtinchi guruhning asosini ko'p ma'nolilik xususiyati tashkil etadi. Bunda ingliz tilidagi ba'zi iboralarning o'zbek tilidagi nisbatan polisemantiklik hola ti kuzatiladi. Masalan, all thumbs – o'ng'aysizlik, omadsiz kun, chap yonda turmoq.

Ko'rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini aniq bir ibora bilan belgilab bo'lmaydi. Bu kabi iboralar ham til o'rganuvchilarning o'zlashtirishlarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ingliz tili frazeologik birikmalarini o'rganish va o'zlashtirishdagi xatoliklar va qiyinchiliklarning oldini olish maqsadga muvofiqdir. Ularning oldini olish maqsadida til o'rganuvchilarga shu kabi frazeologik birliklarga xos xarakteristikalarini, ingliz tili iboralarning avvalom bor ma'nosining qo'llanilishi holatlarini tushuntirish lozim. Bu yerda albatta, ingliz va o'zbek tillarining turli sintalitga turli tillar oilasiga tegishli ekanligini va shu asosiy faktor ta'sirida ularning frazeologik qatlamlari ham turli situatsiya, kontekstlarda turlicha konsept va obrazlar bilan ifodalanilishi o'rinli ekanligini ta'kidlashni unutmaslik zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Ilmiy adabiyotlar.

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" "Ma'naviyat", 2011
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", T., 2008
3. Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol ablodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. T., "Xalq so'zi", 2012.
4. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии Л., 1963.
5. Арнольд И.В. The English Word. М., 1986.
6. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. М., 1957.
7. Бархударов Л. С., Штелинг Д. А. Грамматика английского языка. М., 1963.
7. Bo'ronov J. Hoshimov O'. "Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi". O'qituvchi. Toshkent. 1975.
8. Bo'ronov J, Hoshimov O'. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent 1974.
9. Varabash: A Guide to better grammar. М., 1975.
10. В.В.Виноградов. Фразеология современного английского языка. М., 1972.
11. Ганшина М.А. Практическая грамматика английского языка. М., 1964.
12. Gordon E.M. Krilova I.P. A Grammar of Present-day English. М., 1974.
13. Ильиш Б.А. Structure of Modern English. М., 1959.
9. Иртенъева И.Ф. Грамматика современного английского языка. М., 1956.
10. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., Укитувчи, 1992.
11. Маматов Э.А. Хозирги замон узбек адабиётида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент., 1991.

12. Менглиев Б. Хозирги узбек адабий тили. Карши: «Насаф», 2004
13. Kaushanskaya V.L. Kovner R.L. A grammar of the English language. M.,1973.
14. Качалова К. Н. Грамматика английского языка. М. 1964.
15. Karsakov A. The use of tenses in English Lvov University press. 1969.
16. А.В.Кунин. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.
17. Ralph B. Long A.Grammar of Contemporary English. Chicago., 1961.
18. Starshimova E.K. Vasilyeva M.A. Practical grammar of English. M., 1975.
19. Jespersen O. Essentials of English Grammar. London.1953.
20. Смирницкий А.И. Морфология английского языка. М. 1957.
21. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. М., 1957.
22. Содиков А. Абдуазизов А. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш Т. «Укитувчи», 1981.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar.

1. John Steinbeck “The Grapes of Wrath” Moscow 1978. 329 bet.
2. J. Feminar Cooper “The spy” Moscow 1975.
3. P. D. James “Death in haly orders” New York 2001.
4. S. Hill. “The Blue Niking” New York 2001.
5. Christie A. Selected stories. M., 1967.
6. Cronin A. The Citadel. M., 1965.
7. Dickens Ch. David Copperfield. M., 1980.
8. Dickens Ch. Great Expectations. L., 1987.
9. Dreiser Th. Sister Carrie. M., 1961.
10. Mansfield K. Selected stories. M., 1962.
11. Joynich E.L. The Gadfly. M., 1965.

Lug’atlar:

1. Axmonova O.S. “Slovar lingvusticheskix terminov” M., 1966
2. Axmanova O.S “ Rusko – angliyskiy slovar ” M.,1987
3. Myuller B. K, “ Anglo russkiy slovar” M., 1987
4. Hornby A.S. “ Oxford student’s dictionary of current English” ox.un.press 1995
5. The Oxford English Dictionary in 12 volumes. Oxford, 1977.